



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**“XALQ RIVOYAT VA XIKMATLARI VOSITASIDA
MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY-
MILLIY QADRYATLARNI SHAKLLANTIRISH”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi

bitiruvchi 4 - kurs talabasi _____

ILMIY RAHBAR:

kat . o‘q Yo‘ldosheva F.M. _____

Termiz – 2018

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-9
I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA UNING SHAKLLARI	
1.1 Maktabgacha ta’limda xalq rivoyat va hikmatlari vositasida tarbiyalashning pedagogik asoslari.....	10-17
1.2 Bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish mazmuni va shakllari.....	18- 25
I bob bo’yicha xulosa.....	26-27
II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH USUL VA VOSITALARI	
2.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash usul va vositalari.....	28-45
2.2 Katta guruhdagi bolalarda axloqiy milliy qadriyatlarni shakllantirishda xalq rivoyat va hikmatlaridan foydalanish.....	46- 53
II bob bo’yicha xulosa.....	54
III BOB. KATTA GURUHDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH MASHG’ULOTINI TASHKILETISHNING AMALDA O’RGANILISHI	
3.1 Katta guruh bolalarini xalq rivoyat va hikmatlari bilan tanishtirish hamda suhbatlashish.....	55-59
3.2 Natijalar taxlili va xulosa.....	60- 64
III bob bo’yicha xulosa.....	65- 66
XULOSA VA TAVSIYALAR.....	67-68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69-70
ILOVALAR.....	71

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri, Prezidentning Davlat maslahatchilari, tegishli vazirlik va idora raxbarlari ishtirok etdi. Mamlakatda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlidni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi.

Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi.

Prezidentning joriy yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi.

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ni kengaytirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim- tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, manaviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Yig'ilishda shu borada amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikirlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir, dedi president.

Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyasini olgan bola bilan maktabgacha ta'lim muassasasiga bormagan bolani solishtirgan, ularning fikirlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi, deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy texnik –bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni

o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir, deya takidladi yig'ilishda.

Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv metodik adabiyotlarning yangi avlodni yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir.

Yana bir muhim masala-bu maktabgacha ta'lim muassasalarida malakali tibbiy xizmatni tashkil etish, sanitariya meyorlari va gigiyena qoidalariga to'la javob beradigan sog'lom ovqatlanish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari va boshqa tegishli idoralarga har bir masala yuzasidan aniq muddatlari ko'rsatilgan holda muhim topshiriq va vazifalar berildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) maktabgacha ta'lim bo'limlarini binolar va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash zarurligi qayd etildi.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv-reja va dasturlarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari maxsus sirtqi bo'limlarining "Makatabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 2018-2023 yillar uchun kvotalar ajratish masalasiga e'tibor qaratildi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dastur"ni joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash va internet tarmog'iga ulash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalariga shifokorlar ajratish, tibbiyot hamshiralarning malakasini oshirish, tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun dori

darmon, sanitariya-gigiyena vositalari bilan to'liq taminlash, bolalarning ovqatlanishini belgilangan me'yorlar darajasida tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalariga mo'ljallangan o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni nashr etishga doir standartlarni qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash masalasiga ham e'tibor qaratildi. Bir so'z bilan aytganda, biz maktabgacha ta'lim sohasida har jihatdan zamonaviy tizim yaratishimiz kerak, dedi davlat rahbbari. Kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi barcha bolalarni maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olishga erishmog'imiz shart. Bu ertangi kunimizni hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz.

Yig'ilishda soha oldida turgan dolzarb vazifalar belgilab berildi. Shu asosda Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq rivoyat va hikmatlari vositasida axloqiy milliy qadryatlarni shakllantirish va shu bilan birga ularni rivoyat va hikmatlardan shu yoshdagi bolalar o'zlariga kerakli bo'lgan bilim malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni tarbiyachilarga o'rgatib borishimiz lozimdir. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish bizning milliy pedagogikamizda azaldan mavjud bo'lgan va turli davrlarda u o'ziga xos ko'rinish hamda mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan. Bu tarbiya sohasi o'zining turli-tumanligi jihatdan qadriyatlar yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, uning bolalar dunyoqarashi hamda ruhiyatiga ta'sir etib, ma'lum bir ko'nikmalar hosil qilishi juda bir murakkab jarayondir. Ushbu murakkab jarayon qadriyatlarning yuzaga kelish asoslari bilan bog'liqdir.

Qadriyatlar inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Bular: tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bo'lgan tabiiy shart-sharoitlar); iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari); ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, xamkorlik); ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar); falsafiy

qadriyatlar (gʻoyalar, mafkuralar, konsepsiyalar); badiiy qadriyatlar (sanʼat, adabiyot, madaniyat); diniy qadriyatlar (iymon, eʼtiqod, vijdon, savob) kabi qadriyatlarni qayd etish mumkin boʻladi. Shu bilan birga fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi anʼana tusiga kirgan.

Milliy qadriyatlar maʼlum bir millat, xalq va elatlarning oʻz tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (maʼnaviy) boyliklari yigʻindisidan iboratdir. Umuminsoniy qadriyatlar tabiatni muhofaza qilish, madaniyatni rivojlantirish, inson sogʻligini saqlash, oziq-ovqat bilan taʼminlash, energiya-yoqilgʻi tanqisligining oldini olish, turli tahdidlarni bartaraf etish, sivilizatsiya taraqqiyotini davom ettirish kabi sohalarni oʻzida mujassamlashtiradi.

Qadriyatlar turli-tuman boʻlishi bilan birga «dunyoda eng oliy qadriyat-inson» hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining maʼnaviy, tarixiy hamda taʼlimiy jihatlarini oʻziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlar asosida birinchi prezidentimiz asarlarida batafsil yoritilgan.

Bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyatini birinchi prezidentimiz asarlaridagi gʻoyalardan kelib chiqqan holda «oʻquvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda komil inson etib tarbiyalash» jarayoni sifatida izohlash mumkin boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishi mavzusini “Xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy milliy qadriyatlarni shakllantirish” deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadriyatlarni shakllantirish asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadriyatlarga boʻlgan bilim va koʻnikmalarini shakllantirish va shu asosda milliy qadriyatlardan amaliy foydalanish yoʻllarini belgilab olish hamda bu yoʻnalishda oʻziga hos usullar tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:

- mavzuga oid tarixiy, pedagogik, psixologik, uslubiy manbalarni o'rganish va mavzuni yoritish;
- bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning usul va vositalarini tizimlashtirish;
- bolalar tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va natijalar taxlili asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va bazasi: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirishda xalq rivoyat va hikmatlaridan foydalanish jarayoni. Sherobod tumanidagi 1-son "DILSHODBEK" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi katta guruh tarbiyalanuvchilari.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: Bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlardan foydalanish mazmuni, shakllari, metodi va vositalarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: pedagogik kuzatish, suhbat, tahlil (analiz), umumlashtirish (sintez), tajriba-sinov.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati:

- bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy qadryatlardan foydalanish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslandi;
- bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlandi;
- bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlardan foydalanish metod va vositalari belgilab berildi;
- bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadryatlardan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. O'zbek xalq ertaklari, rivoyatlari, dostonlari asosida MTMLlarda mashg'ulotlar sifatida katta guruhlarda tashkil etildi. Katta guruhlarda kichik "debat"lar olib borildi. 5-6 yoshli bolalarning fikr mulohazalari intervyu sifatida baholandi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi. Tadqiqotda sharq mutafakkirlari Abu Nasr al-Farobiy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Fargʻoniy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy meroslari, Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yosh avlodni har tomonlama komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasiga bagʻishlangan hamda maʼnaviy-maʼrifiy islohotlarni chuqurlashtirishga yoʻnaltirilgan qarorlari metodologik manba boʻlib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, qoʻlga kiritilgan natijalar bolalar psixologiyasi, maktabgacha pedagogika, nutq oʻstirish metodikasi kabi fanlar uchun manba boʻla oladi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Tadqiqot materiallaridan maktabgacha taʼlim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, psixologlar, uslubchilar, shuningdek, maktabgacha taʼlim, pedagogika-psixologiya, psixologiya taʼlim yoʻnalishi talabalari, magistrilar hamda soha vakillarini malakasini oshirish kurslarida keng foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, olti band, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishi kompyuter variantda 70 betni tashkil qiladi.

I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA UNING SHAKLLARI

1.1 MAKTABGACHA TA'LIMDA XALQ RIVOYAT VA HIKMATLARI VOSITASIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Inson qadriyati milliy qadriyatlaridan kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy mazmun-mohiyatga egadir, ular insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi. Inson shaxsi ijtimoiy tarbiyadan kelib chiqadigan qadriyatlar inson ma'naviy-axloqiy me'yorlari, xulq-atvori va yurish-turishini tartibga solib turadigan bir kuchdir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat xarakteri, balki uning fikr-xayoli yangicha mazmun kasb etib boyib boradi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning tiklanishi natijasida inson qadr-qimmatini o'rniga qo'yish, uning bilimi, madaniyat saviyasini o'stirish hamda ichki qobiliyat-ko'nikmalarini rivojlantirishga keng yo'l ochildi. So'nggi o'n yilliklar davomida inson shaxsi, uning haq-huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini muhofaza qilish bo'yicha ancha katta ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng muhimi oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, uning samaradorligi oshirishga qaratilgan tadbirlardir

Maktabgacha ta'lim yoshining o'ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar hali ahloqiy tushuncha yoki xulqni so'z bilan aniq ta'riflab berolmaydilar, uni boshqa shunga o'xshash voqyealar bilan solishtira olmaydilar. Ammo bolalar bog'chasidagi to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon ahloqiy voqyealarning umumiy ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko'rsalar, o'zlari ham ularga o'xshashga harakat qiladilar.

Axloqiy tarbiyaning g'oyaviy asosi uning maqsadi, vazifasi va tamoyilini belgilaydi, ruhiy–pedagogik asosi esa bolalar bog'chasida ahloqiy tarbiya berishning aniq vazifasi va mazmuni, vositalari va metodini, shuningdek pedagogik shart–

sharoitini belgilab beradi. Axloqiy tarbiya jismoniy, aqliy, mehnat, estetik tarbiya bilan va bolalarning o'z faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bolalarni ahloqiy shakllanishi bir biri bilan uzviy bog'liq va biri ikkinchisini taqozo qiladigan ta'lim–tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq va mukammal tizimigina ahloqiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.

Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlavermaslikka, tarbiyachiga nisbatan biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan qarama–qarshi ta'sirlarning oldini olishga tarbiyachilarga bir xil talablar qo'yish va yakdillik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi. Oliy o'quv yurtlarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy–ahloqiy, tarbiyaviy ishlar, tadbirlar ko'plab o'tkaziladi. Axloq – odobga doir suxbatlar, ma'naviyatga doir mavzularda maruza va munozaralar o'tkazish usullariga ham yetarli darajada e'tibor berilmaydi. Ayrim metodlarga yopishib olish va boshqalarga e'tibor bermaslik bo'lajak tarbiyachilarda yoki hozirgi zamon tarbiyachilarida ma'naviy – ahloqiy fazilatlarni shakllantirish ishiga salbiy tasir etadi.

Pedagogik matbuotda ahloqiy tarbiya xaqida masalaga borgan sari ko'proq e'tibor berilmoqda. Pedagog olimlarning asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar bo'lajak tarbiyachilarning ahloqiy tarbiya tizimini ishlab chiqishga imkon beradi. Axloqiy tarbiya tizimi nima? Tizim qismlardan tuzilgan bir butun, yani ma'lum tartibda joylashtirilgan bir – biri bilan bog'liq yaxlit bir narsa yoki jarayon degan manoni anglatadi.

Bolalarda ahloqiy sifatlar qandaydir biror universal shakl, vosita yoki usul yordamida emas, balki xilma xil shakllar, vositalar, metodlar, har xil faoliyat turlari ta'sirida, yani ahloqiy tarbiya tizimi natijasida shakllanadi. Tarbiyaviy ishlar tizimi ma'lum vazifani bajaradigan, tuzilish jihatidan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab qismlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya tizimi barkamol avlodni, yuksak ahloqiy fazilatli

bolalarni shakllantirish maqsadiga bo'ysindirilgan, o'zaro bir – biriga bog'liq va mos keladigan shakl, usul va vositalarning yaxlit birligidan iborat. Tizim tarbiya jarayonini boshqarish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Talim jarayonida faqat ahloqiy tarbiyagina emas, balki aqliy, xuquqiy, iqtisodiy, ekalogik, estetik va mexnat tarbiyasi ham amalga oshiriladi.

Pedagogik tarbiya metodlariga quyidagilar tasnif qilinadi:

1. Ishontirish metodi.
2. Axloqiy xatti – harakatlarni mashq qildirish metodi.
3. Namuna, ibrat metodi.
4. Rag'batlantirish va jazolash metodi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli va buyuk ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim - tarbiya vazifalariga ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirishga va do'st o'rtoqlariga yordam berishga intiladi.

Demak, tarbiyachi avvalo bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan o'lka xayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining “Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati” nomli risolasida shunday yozadi - “Tarbiyachi – ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql – idrokini o'stirishi, marifat ziyosidan baxramand qilishi, xaqiqiy vatanparvar, xaqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun avvalo tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak”.

Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Shunga ko'ra tarbiyachi bolalarga kundalik xayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mexnat faoliyatida ular bilan bo'ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi, bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy hususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon

qilishi, bolalarning xulq – atvori, uning ish natijalarini xaqqoniy baxolashi va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi hamda oilaviy axvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham tarbiyachi – murabbiy kadrlarning ma'naviy – ahloqiy qiyofasi, aqliy saloxiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning malumotini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berishi uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Tarbiyachi ta'lim – tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lish kerak.

Biz o'zimizning milliy g'ururimiz, milliy mafkuramizga ega bo'lgandan so'ng ta'lim-tarbiya tizimida shunga xos yosh avlodni milliy ruhda, milliy ongini shakllantirishga, xalqimizning qadimiy qahramonona o'tmishini ifodalaydigan asarlarni o'rganishga qiziqtirish e'tiborga olinmoqda. Milliy tarbiya O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor yoshlarni tarbiyalab etishtirishda o'ziga xos nazariy muammolari bor. Shulardan biri – tarbiya nazariyasining hali milliy istiqloq haqidagi ilmiy tushunchalar asosi yaratilmaganligidir.

Ikkinchi muammo – O'zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlashda yosh avlod qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, degan savolni aniq tajribaga asoslangan javoblar olish masalasidir. Ma'lum davrda bizning ta'lim tizimimizga jahonning ilg'or yutuqlaridan, o'z xalqining tarixiy ildizlaridan ajralib qolgan edi.

- Endilikda bunday holatni tag-tomiri bilan o'zgartirish payti keldi. Oldimizda amalda jahon fani va madaniyatining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, inson aql-zakovati yaratgan boyliklaridan bahramand bo'lgan yangi avlodni shakllantirish vazifasi turibdi. Har qanday ilmiy nazariya mazmuni va mohiyati jihatidan ma'lum bir xalqning, millatning tarixiy, diniy,

ma'rifiy, hududiy boy merosining asl negizini yoritishga, ma'naviyatini, ulkan muammolarini hal qilishga xizmat qilmog'i zarur. Metodologiya mana shu muammolarni echishning asosiy yo'llarini ko'rsatib berishi lozim. Shu maqsadni amalga oshirish uchun umumbashariy, milliy, ma'naviy tajribalarga tayangan holda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi orqali axloqiy qadriyatlar quyidagi vazifalarni yechishdan iborat deb bildik:

- Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish orqali axloqiy qadriyatlarga, xalqimizning milliy urf – odat, an'analarni bilishga yo'naltirish;
- Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga o'z xalqining tarixiy, madaniy, milliy xususiyatlarini anglab olishga bo'lgan zaruriyatni tarkib toptirish;
- Hozirgi davrda mustaqillik sharoitida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni zamon talablarini anglab etishga yo'llash.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni tahlil qilish, unda yuz berayotgan qarama qarshiliklar, ijimoiy va ma'naviy yo'nalishni aniqlash pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy urf-odat, an'analarni, ma'rifiy tajribalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni xalqimizning, ota-bobolarimizning merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Albatta, bu ishlar mustaqil respublikamizning istiqbolini mustahkamlash va rivojlantirishda hamda ma'naviy jihatdan etuk, e'tiqodi mustahkam yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqi barcha xalqlar singari asrlar mobaynida saqlanib kelgan milliy qadriyatlari, urf-odatlari, axloq-odobi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, rasm-rusumlari, umuman aytganda, madaniy – ma'rifiy dunyosiga egadir. Shu bilan bir qatorda dunyo madaniyatining rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shdi. Buyuk donishmand va

mutafakkirlarning aytishicha, har qanday davlatning mustahkamligi, buyukligi, farovonligi mamlakat fuqarolarning, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Biz o'zimizning tariximizni yaxshi bilmasdan turib, buyuk maqsadimizga erishishimiz mumkin emas.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv asosida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlarini quyidagi muammolarni hal etishda deb hisoblaymiz:

- Har bir maktabgacha ta'lim yoshdagi bolaning umuminsoniy, milliy, ma'naviy-axloqiy xususiyatlarining sifatini oshirish;
- Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolaning o'z xalqining urf-odati, an'analari, tarixiy o'tmishini bilib olishi, chuqur tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash;
- Mustaqil O'zbekistonning talablariga javob beruvchi ma'naviy jihatdan barkamol, axloqiy tomondan mustahkam barkamol shaxsni shakllantirish;
- Xalq og'zaki ijodi vositasida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarini axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- Xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali o'zbek xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muxabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirish hissini tarkib toptirish;
- O'z millati, ona Vataniga sodik vatanparvar bo'lish hissini tarbiyalash;
- Xalq og'zaki ijodi vositasida yosh avlodni axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash negizida ularda xalqning hayoti, tarixini bilib olish, axloqiy qoidalarni o'z ongiga singdirishni ta'minlash;
- Milliy maktabgacha ta'lim muassasasi negizida ta'lim-tarbiya tizimini milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida amalga oshirish.

Albatta, ta'lim-tarbiya sohasidagi bu ishlarni birdan amalga oshirish qiyinroq. Mustaqil O'zbekistonimiz bozor munosabatlariga o'tayotgan bir davrda asta-sekinlik bilan bo'lsa ham maktabgacha ta'lim muassasalari milliy ruh olib rivojlanmoqda, darslik, dasturlar yaratilib, amaliyotda o'z natijalarini bermoqda, maktabgacha ta'lim muassasasi tevarigidagi ijtimoiy muhitning barcha ijobiy omilaridan unumli foydalanib, o'ziga xos mazmun kasb etmoqda

Binobarin, oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlaridan biridir.

Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning hulq-atvorlariga, gap-so'zlariga kishilar oldiga o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Islom dini ta'limotiga ko'ra farzand ko'rgan ota-ona zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi. Tug'ilgan bola qulog'iga azon aytirish, unga munosib ism qo'yish, o'g'il bo'lsa qo'lini halollash, axloq-odob, ilm hunarga o'rgatish, bo'yga etganda munosibiga uylash, uzatish-boshini ikkita qilib qo'yish kabilardir.

Hozirgi kunda ham oilaviy qadriyatlardan foydalanib bolalarni tarbiyalash ko'pgina oilalarda davom etmoqda.

Onalar qadimda o'z bolalari beshigi tepasida alla aytib, go'dakni xotirjam qiladi, orom olib uxlashga imkon beradi.

Allalarga onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham qo'shib aytganlar. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatining ham manbaidir.

Bolaga munosib ism tanlash va qo'yish ham azaliy odatdir. Xalq orasida bolaning hulq-atvori, fe'li ismidan bilinadi degan gap bor.

O'zbek oilalarida er-xotinlar bir-birining ismini aytib chaqirishmagan, chunki bu odobsizlik sanalib, zaruriyat tug'ilganda bir-birini katta farzandlarining ismi bilan chaqirishgan.

Keksalarni hurmat qilish, ularning maslahatlarini, yo'l-yo'riqlarini olib ish tutish, pand-nasihatlariga quloq solish, va unga amal qilish o'zbeklarga xos odat bo'lib kelgan.

Nonni e'zozlash odati qadimdan to shu kungacha davom etib kelmoqda. Mehmon kelganda dasturxonga birinchi bo'lib non qo'yilishi, chaqaloqni beshikka solganda boshiga non qo'yish, safarga ketayotgan kishiga non tishlatib qolish, yo'lga chiqqanda o'zi bilan birga non olib ketish eng yaxshi odatlarimiz sifatida qadrlanadi.

Yana bir odatlarimizdan biri suvni e'zozlashdir. Suvga tuflash, chiqindilarni oqizish, mag'zava to'kish, ahlatlarni tashlash gunoh hisoblangan.

Qo'ni-qo'shnichilik, mehmondo'stlik, hashar kabi odatlarimiz eng mo'tabar insoniy xususiyatlar sifatida yashab kelmoqda. Mehmondo'stlik, ajoyib udumlarimizdan hisoblanadi. Xalqimiz o'zi nochor yashaganda ham topganini mehmondan ayamaydi.

Oilaviy udumlardan biri dasturxon atrofida o'tirish va oilaviy ovqatlanish, hamda ovqatlanib bo'lgach dasturxon atrofidagi keksa yoki yoshi kattaroq kishi taom haqi uchun duo fотиha o'qiydi.

O'zbek halqining turmush tarziga singib ketgan yaxshi va ijobiy urf-odatlarimizning ko'pchiligi xalqni, jamiyatni faqatgina yaxshilikka-olijanob inson, axloqi pok, jismoniy sog'lom, e'tiqodli shaxs bo'lib etishishiga xizmat qilib keldi.

1.2 BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH MAZMUNI VA SHAKLLARI

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yuzasidan olib boriladigan ishlar shu umumiy vazifalarga muvofiq ravishda takomillashtirilishi lozim. Maktabgacha yoshda shakllanadigan ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular, xulq-atvor odatlari va tasavvurlar butun bolalar faoliyatiga va ular o'rtasidagi, bolalar bilan kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kompleksiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmuni va formalari bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda jiddiylashtiriladi.

Bolalar bilan rejali ravishda izchil ish olib borish ularning ma'naviy-axloqiy tasavvurlarini ham, real ma'naviy-axloqiy xulq-atvorlari darajasini ham oshiradi; Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarida ko'p narsani o'z qo'llari bilan qilish va qilingan ishlardan quvonish, kattalar mehnati natijalarini qadrlash ko'nikmalari rivojlanadi; unum foydasi uchun qilinadigan ishlarda o'zlari ishtirok etishga, birga o'ynash, shug'ullanish, umumiy maqsadlarni qo'yish va amalga oshirishga intilish vujudga keladi. Bularning barchasi bola shaxsining ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Ma'naviy-axloqiy odatlar me'yor bo'lib qolishi uchun bolaning ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlarni mashq qilishiga shart-sharoitlar yaratish kerak. Uning boshqa bolalar bilan muloqotiga rahbarlik qilish uni u yoki bu holatda o'zini qanday tutishga o'rgatish, turli faoliyatdan foydalanib, xulq qoidalari bilan tanishtirish zarur.

Maktab ostonasida turgan bolada quyidagi ma'naviy-axloqiy xulq-atvor odatlari shakllangan bo'lish kerak: tozalik, ozodalik, tartiblilik, mustaqillik, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, kattalar mehnatining qadriga yetish va asrash, biror narsa bilan mashg'ul bo'lish, o'yinchoqlar o'z buyumlari va jamoa mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, kattalarni hurmat qilish, ular haqida g'amxo'rlik qilish, ota-onasi so'ziga to'g'ri munosabat bildirish, intizomli, sofdil, rostgo'y bo'lish: xushmuomala,

xayrixoh, muloyim, vazmin, jonkuyar bo'lishdek madaniy xulq va muomala odatlaridir.

Bugungi kunda jamiki ma'naviy-axloqiy sifatlar – yosh avlod ongiga uning bolaligidanoq singdirish, yoshlar o'rtasida Vatanga sadoqat, do'stlik, mehnatsevarlik, halollik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, bu borada maktabgacha muassasalaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy boylikni, ma'naviy-axloqiy poklikni mujassamlashtirgan, har tomonlama kamol topgan, ijtimoiy jihatdan faol shaxsni shakllantirish borasida sobitqadamlik bilan ish olib borilmoqda. Yangi kishini tarbiyalash g'oyat murakkab jarayon, shunday ekan, o'rtaga qo'yilgan tarbiya talablariga amal qiladigan kishilargina odobli, axloqli hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liqdir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biri davlatimiz va jamiyatimiz uchun xizmat qiladigan yetuk, sog'lom, har tomonlama barkamol bolalarni tarbiyalashdan iboratdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, sog'lom avlod tarbiyasi ustuvor yo'nalish deb belgilandi. Sog'lom avlodni tarbiyalashda yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish uzoq muddatli uzluksiz pedagogik jarayon natijasida vujudga keladigan ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy holatdir. Bu jarayonni amalga oshirishda ta'lim muassasalarida yaratilgan pedagogik shart-sharoit, sog'lom muhit va maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni ijtimoiy hayot voqea-hodisalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar to'g'risidagi eng oddiy bilimlarni egallab olishlari ularda dastlabki ma'naviy-axloqiy sifatlaridan tarbiyalab borishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshining o'ziga

xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar ham ma'naviy-axloqiy tushunchalarni so'z bilan aniq ta'riflab bera olmaydilar, uni boshqa shunga o'xshash voqealar bilan solishtira olmaydilar. Ammo bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon ma'naviy-axloqiy voqealarning umumiy ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko'rsatar, o'zlari ham ularga o'xshashga harakat qiladilar.

Bolalarda kattalar bilan muloqot jarayonida xulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Muloqot mazmuni pedagogik jihatdan qimmatli bo'lishi kerak, shunda u bolaga zarur ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: xulq-atvor ma'daniyati, bolalar va kattalar o'rtasida insoniy munosabatlarni tarbiyalash (ijtimoiy turmushning eng sodda qoidalarini bajarish; hayrihoxlik, yaqin kishilarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va hokazo); jamoatchilikni tarbiyalash; ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog'lab olib borish; bolalarning faolligi; oila, maktabgacha ta'lim muassasasi hamda, kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; boladagi ijobiy sifatlarga tayanish ayniqsa muhimdir.

Pedagog bu barcha vazifalarni o'zaro bog'lik holda amalga oshira borib, bolaning his tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi va ularda ma'naviy-axloqiy sifatlardan tarbiyalaydi, ayrim ma'naviy-axloqiy fazilatlar va bolalarga tushunarli bo'lgan ijtimoiy turmush hodisalari haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi, asta-sekin baholash va bir-biriga baho berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, u siz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, uning ma'naviy-axloqiy sifatlarini, xalqimizning ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlarni va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo'lmaydi.

Pedagog eng oddiy odatlarni (masalan, ma'daniy xulq-atvorni) tarbiyalar ekan, kichikintoy har bir narsani ishtiyoq bilan va umuman ongli ravishda bajarishga, ya'ni tashqi ijobiy narsalar ichki mohiyatni, uning qoidalariga munosabatini aks ettirishga erishadi. Bu hayrihoxlikni tarbiyalash, tengdoshlari va atrofini o'rab turgan kattalarga nisbatan loqayd, beparvo munosabatning vujudga kelishi imkoniyatining oldini olish uchun muhimdir. Shu tariqa ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nisbatan oddiy ijobiy odatlari bolaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun qimmatli bo'ladi.

Pedagoglar va ota onalar bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlardan tarbiyalar ekanlar, bolalarda kattalarga hurmat, quloq solish istagi va ko'nikmalari, ularning maslahatlari, ko'rsatmalari va topshirqlarini bajarishga tayyorgarlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari; tengdoshlari bilan do'stona o'zaro munosabatlar, ularga va kichiklarga, kattalarga g'amxo'rlikda bo'lish tuyg'usini shakllantirishlari kerak. Bolalarning o'z vazifalarini esda tutish va ularni ishtiyoq bilan bajarishga; boshqalar bilan o'z bilimlari, rejalari, o'yinchoqlari va qo'llanmalarini bo'lishishga o'rgatish lozim.

Kichik yoshdan boshlab bolada birga qayg'urish, boshqa kishilarning g'am va quvonchlariga sherik bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Adabiy qahramonlar xulq-atvorini, o'zi o'zining xulq atvorini va tengdoshlarining xulq atvorini to'g'ri baholashga o'rgatish lozim. Turli millat bolalari va kattalarni yoqtirish, ularga hayrihoxlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash; insonparvarlik his-tuyg'ulari va munosabatlarining namoyon bo'lishiga, ularning ijtimoiy yo'nalganligiga erishish zarur.

Shu munosabat bilan bolalarda mehnatsevarlikni faqat o'zi uchun emas, balki umum foydasi uchun ham mehnat qilish istagi va malakalarini, maqsad qila olish va ijobiy natijalarga erishish, xoxishdan qat'iy nazar zarur bo'lgan narsani bajarish malakalarini tarbiyalashga alohida e'tibor kerak. To'siqlarni yengib o'tishga tayyorgarlikni tarbiyalash, qo'yilgan vazifani bajarishda tashabbus ko'rsatish, ishni

oxirigacha yetkazishga bo'lgan intilishni rag'batlantirish lozim. Guruh oldida ma'naviy-axloqiy sifatlardan tarbiyalash zarur.

Maktabgacha bolaning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari, uning ijtimoiy yo'nalganligi bolalarda asta sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvor odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamoatchilikni tarbiyalash maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasidir. U atrofdagi odamlarga, faqat o'zing uchun emas, boshqalar uchun ham muhim bo'lgan faoliyatga nisbatan xudbinlik, beparvo munosabatning nomoyon bo'lishiga ziddir. Bolalarda uyushqoqlik, burch hissi kurtaklari tarbiyalangan bo'lsa, jamoatchilik kichik yoshdanoq ularning xush ko'rishlik, ijobiy, do'stona munosabatlarini rivojlantirishga asoslanadi, bu bolalarning hayrihoxlik munosabatlari uchun nihoyatda muhimdir.

Birgalikda rang-barang mazmunli faoliyat har bir bolada jamoatchilik asoslarini rivojlantirish va maktabgacha yoshdagi jamoani shakllantirish, ma'naviy-axloqiy sifatlardan tarbiyalash uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun avvalo bolalarga ta'lim-tarbiya berayotgan muassasa jamoasining katta yoshli a'zolari o'rtasida to'g'ri o'zaro munosabat uslubini vujudga keltirish kerak.

Pedagogik jamoa va ota-onalar jamoalarining to'g'ri munosabatlari uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Bu uslub esa bolalar barchasining ota-onalar bilan muntazam ish olib borishi, oila tarbiyasi tajribalarini o'rganishi natijasida tarkib topadi.

Kattalar bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuksak darajasi muvaffaqiyatli ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning majburiy shartidir. Ular o'sib kelayotgan shaxsga hurmat, uni yaxshi ko'rish, uning psixik va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslangandir. Bunday munosabatlar va o'zaro munosabatlar balalar muassasasining mustahkam an'anasi bo'lib qolishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasi hayotining aniq kun tartibi, guruh xonalar va uchastkaning zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan jihozlanganligi, ularning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq joylashtirilishi va qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining «Bolajon» tayanch dasturi asosida ma'naviy-axloqiy ishlarni tashkil etish, asosan bolalar jamoasida ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish, bolalarni o'zaro bir-birlarini yoqtirishlari, jonajon maktabgacha ta'lim muassasasi va tarbiyachisini hurmat qilish, tengdoshlari va o'z xulqini baholay olish ko'nikmasini shakllantirishdan boshlanadi. Bola katta guruhga chiqqan davridan boshlab uning kattalar, tengdoshlari, do'stlari, kichik yoshdagilar bilan aloqasi sezilarli darajada kengayadi. Ularning umumiy kechinmalari, xursandchiliklari, tashvishlari ko'payadi.

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish bir nechta yo'nalishda olib borilishi mumkin, bular: o'yinlar yordamida (qoidali o'yinlar, stol o'yinlari, roli o'yinlar, teatrlashtirish va boshqalar), jamoada mehnat faoliyatini tashkil qilish, ertaklar orqali va turli vaziyatlarda bolalarni juftliklarda hamkorlik qilishga yo'naltirish orqali va hokazo.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlarni egallab borar ekan bolalar bir-birlariga o'yinda yordam berish, bir-biriga xayrixoh va g'amxo'r bo'lish, bolalarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etadi va bolalarni bir-birlarini ma'naviy qo'llab-quvvatlashi shakllanadi. Tarbiyachi qanday qilib bo'lsada bolalardagi hamdardlik, xayrixohlik bildirishga bo'lgan intilishni qo'llab-quvvatlashi darkor, xuddi shu asosda tarbiyalanuvchilarning o'z o'rtoqlariga yordam berish qobiliyati va ko'nikmalarini mustahkamlashi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tengqurlar bilan muloqot sharoitida mustaqillik, aktivlik, o'ziga ishonch, hamkorlik, o'zini nazorat qilish kabi sifatlari tarkib topar ekan. Demak, bunday muloqot sharoiti bolaning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etadi. Bolani tengdoshi bilan muloqoti emosional va harakatlarga boy. Kattalar bilan muloqotda orttirilgan intellektual va ijtimoiy tajriba, tengdoshlar bilan

bo'ladigan aloqalarda qo'llaniladi, o'zlashtiriladi va boyitib boriladi. Kattalar bilan bo'lgan muloqot bolani taraqqiyotni yangi sifat bosqichiga olib chiqsa, bolalar o'rtasidagi aloqalar mazkur bosqichdagi son o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va yuqori bosqichga o'tish uchun zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining kundalik hayoti va faoliyatida bolalarning ma'naviy-axloqiy tasavvurlarini tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar mavjud bolalar jamoalarida maxsus tashkil qilingan hamkorlik orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bolaning muassasada bo'ladigan oxirgi yilining har bir kuni ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan foydali bo'lishi uchun maktabga Maktabgacha ta'lim yoshidagi pedagoglari o'quv yilining boshidanoq o'z tarbiyalanuvchilarining kundalik hayotini iloji boricha yaxshiroq tashkil etish haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim. Bunda dastur talablari tarbiyachi uchun asosiy yo'l-yo'riq bo'ladi. Shu bilan birga ular doim o'z guruhi bolalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini hisobga oladi. Tarbiyachilar birinchi kunlaridanoq, ularni ayniqsa tashvishga solayotgan bolalar bilan qanday ish olib borishni; odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishlari, xulq-atvor normalari va qoidalariga muvofiq, harakat qilishlari bilan quvontiradigan bolalarda his-tuyg'ularni chuqurlashtirish va xulq-atvor odatlarini qanday mustahkamlashni; xulq-atvorni g'oyat qarama-qarshi bo'lgan bolalarni qanday tarbiyalashni muhokama qilishlari kerak. Bolalarning turli pedagoglarda, uyda va maktabgacha ta'lim muassasada o'zlarini qanday tutishlarini, turli bolalarning yaxshilik va yomonlik, atrofdagi ijtimoiy turmush haqidagi ma'naviy tasavvurlari qandayligini yana bir bor tahlil etish lozim.

Bularning hammasi tarbiyachiga bolalarda madaniy xulq-atvor malakalari va odatlarini, kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, do'stona munosabatlar va guruh asoslarini, yaxshilik, do'stlik, adolat,

halollik, kamtarlik to'g'risidagi, bizning vatanimiz va mehnat kishilari haqidagi ma'naviy tasavvurlarni shakllantirishga alohida-alohida, yakka tartibda yondashishni amalga oshirishda, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashda yordam beradi.

Aytib o'tilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari bolalarning xilma-xil faoliyat turlarida, shuningdek pedagoglarning bir maqsadga qaratilgan va muvofiqlashtirilgan ishlaridagi turi.

Tarbiyachi turli vosita va usullarni qo'llar ekan, bolalar xulq-atvor va o'zaro munosabat qoidalarini bilishlari va kundalik hayotda ularni bajarishga intilishlari haqida g'amxo'rlik qilishi lozim.

Bolalar ertalab maktabgacha talim muassaga kelganda (yoki boshqa bo'sh vaqtda) tarbiyachi ulardan bugun uyda o'zlarini qanday tutganliklarini; onalari va buvilarini xafa qilgan yoki qilmaganliklarini, kattalarga qanday yordam berganliklarini so'raydi, bola (bolalar) ota-onasining mehnati haqida nima bilishini aniqlaydi, agar bir ishning qadrli ekanligi ko'rsatishga intiladi. Agar o'g'il yoki qiz bola bularni yaxshi bilmasa, pedagog onasi, otasi, buvasidan so'rab bilishni topshiriq qilib berishi mumkin.

«Mashg'ulot paytida sen bolalarga uyda onangga qanday qarashishing, ota-onang qayerda ishlashi, nima qilishi haqida qiziqarli so'zlab berishing mumkin». Muntazam ravishda maktabgacha ta'lim muassasa xodimlari, ota-onalarga hurmat tarbiyalanadi. Pedagog bolalar bilan faqat gapirishib qolmay, tarbiyachiga, enagaga yordam berish; tarbiyachi metodistdan maktabgacha talim muassa mudirasidan maktabga Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarining yordami kerak yoki kerak emasligini so'rab bilishdek jiddiy topshiriq berishi ham mumkin.

I BOB BO‘YICHA XULOSA

Bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mukammal tashkil etish asoslari va shakllariga oid mavjud ma’lumotlardan kelib chiqqan holda quyidagi dastlabki fikr-mulohazalarni qayd etish mumkin bo‘ladi:

Bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish ularda vatanparvarlik, jamoatchilik, erk, ozodlik, adolat, haqiqat, do‘stlik, mardlik, tarbiya, axloq-odob, aql, ilm-fanga muhabbat, sabr-qanoat, ahillik, andisha, or-nomus, tozalik, sarishtalik, mehnatsevarlik, samimimiylik, ezgulik, insonparvarlik, kamtarlik, mehr-oqibat kabi tushunchalarning shakllanishi va uning bolalarga ta’siri bilan bog‘liqdir.

Bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda milliy qadriyatlardan foydalanish shakllari o‘z asoslariga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

- tarbiya shakllari (aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, nafosat, ekologik, o‘lkashunoslik, huquqiy tarbiya);
- o‘zaro muloqot shakllari (kommunikativ, interaktiv, perseptiv muloqot shakllari);
- didaktik shakllar (suhbat, hikoya, bahs-munozara, mashqlar, mashg‘ulotlar, ogohlantirish, musobaqa, tushuntirish, nazorat qilish va h.k.zo.);

Bu shakllarning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirib, bir-biridan kelib chiqadi.

Bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish bizning milliy pedagogikamizda azaldan mavjud bo‘lgan va turli davrlarda u o‘ziga xos ko‘rinish hamda mazmun-mohiyatiga ega bo‘lgan. Bu tarbiya sohasi o‘zining turli-tumanligi jihatdan qadriyatlar yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning bolalar dunyoqarashi hamda ruhiyatiga ta’sir etib, ma’lum bir ko‘nikmalar hosil qilishi juda bir murakkab jarayondir. Ushbu murakkab jarayon qadriyatlarning yuzaga kelish asoslari bilan bog‘liqdir.

Qadriyatlar inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Bular: tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bo'lgan tabiiy shart-sharoitlar); iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari); ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, xamkorlik); ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar); falsafiy qadriyatlar (g'oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar); badiiy qadriyatlar (san'at, adabiyot, madaniyat); diniy qadriyatlar (iymon, e'tiqod, vijdon, savob) kabi qadriyatlarni qayd etish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan.

Milliy qadriyatlar ma'lum bir millat, xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.

Umuminsoniy qadriyatlar tabiatni muhofaza qilish, madaniyatni rivojlantirish, inson sog'ligini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya-yoqilg'i tanqisligining oldini olish, turli tahdidlarni bartaraf etish, sivilizatsiya taraqqiyotini davom ettirish kabi sohalarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar turli-tuman bo'lishi bilan birga «dunyoda eng oliy qadriyat-inson» hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma'naviy, tarixiy hamda ta'limiy jihatlari o'ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlar asosida birinchi prezidentimiz asarlarida batafsil yoritilgandir. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyatini birinchi prezidentimiz asarlaridagi g'oyalardan kelib chiqqan holda «o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda komil inson etib tarbiyalash» jarayoni sifatida izohlash mumkin bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishi mavzusini "Xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy milliy qadriyatlarni shakllantirish" deb nomladik.

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH USUL VA VOSITALARI

2.1 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH USUL VA VOSITALARI

Hozirgi davrda ahloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etish ko'p jihatdan jamiyatning va undagi har bir shaxsning ahloqiy darajasiga bog'liqdir.

Axloqiy tarbiya –shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga ahloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning ahloqiy his-tuyg'u va sifatlarini, ijobiy munosabatlar a xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Axloqiy tarbiya jarayonida bola ahloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o'zlarining boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar; tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlarida ahloq saboqlari rivojlana boradi.

Pedagogika fani bolaning ahloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruxiyatga oid juda ko'p tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichlar. Xuddi mana shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim – tarbiya ta'sirida shaxsning ahloqiy sifatlari shakllana boshlaydi, 6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib, bola tevarak – atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan ahloq qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo'lib qoladi, shuning uchun bolalarga ilk yoshidan boshlab ahloqiy tarbiya berib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiyaning vazifasi, mazmuni va tamoyillari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ahloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, ahloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini

tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi asosan quyidagilardir:

1. Bolalarda ahloqiy his –tuyg’ular, tasavvurlar va xatti –harakatlarni tarbiyalash
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash
3. Shaxsda ahloqiy his –tuyg’ularni tarbiyalash
4. Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish.

Bu umumiy vazifalar yosh guruhlar bo’yicha konkretlashtiriladi va o’quv – tarbiyaviy jarayonining mazmunida o’z aksini topadi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni bolalar bog’chasi dasturining maxsus bo’limida bayon qilib berilgan.

Dastlabki vatanparvarlik va baynalmilalchilik his –tuyg’ularini tarbiyalash bolalar bog’chasi dasturining “Tevarak –atrof va ijtimoiy hayot voqyealari bilan tanishtirish” (mashg’ulotda va mashg’ulotdan tashqari) bo’limiorqali amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni bolalar bog’chasida ahloqiy tarbiya berishning asosiy prinsiplari va pedagogik shart –sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ahloqiy tarbiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning prinsiplari ishlab chiqilgan.

Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

- g’oyaviy va tarbiyaviy ishning ma’lum maqsadga qaratilganligi;
- ta’lim –tarbiya ishiga bola shaxsni hurmat qilgan holda yondashish;
- ahloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog’lab olib borish;
- bolalarning faolligi;
- jamoada tarbiyalash;
- tarbiyaviy ishning sistemaliligi va izchilligi;
- ta’sirchanligi;
- oila, bog’cha hamda kattalar tarbiyaviy ta’sirining birligi;
- boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ko’zda tutish.

Axloqiy tarbiya prinsiplarini pedagogik shart –sharoitlar bilan qo'shib amalga oshirish bolaning ahloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Olib borilgan bir qancha ilmiy ishlarning natijalari bolalar bog'chasida ahloqiy tarbiya berishning pedagogik shart –sharoitini belgilash imkoniyatini yaratadi. Bular:

1. O'zaro to'g'ri munosabat uslubi:

a) jamoaning katta a'zolari o'rtasida;

b) pedagogik va ota-onalar jamoasi o'rtasida;

v) kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabat, kattalarning bolalarga munosabati.

Kattalar (pedagoglar)ning bolalarga nisbatan insonparvarlik prinsipida, o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, hurmat munosabatida bo'lishi eng muhim shart –sharoit hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'rnatilgan qat'iy rejim.

3. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'z tengdoshlariga va boshqa kishilarga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yuzaga keltiruvchi muhit yaratish.

4. Bolalarni ahloq normalari va qoidalariga o'rgatish hamda shular asosida bola shaxsida ijobiy ahloqiy his –tuyg'ularni tarbiyalash.

5. Jamoada hamma bolalar uchun teng sharoit yaratish va bolalar jamoasi o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish.

6. Kun davomida bolalarning xilma –xil qiziqarli faoliyatlarini tashkil etish.

7. Bolalarning ijobiy ahloqiy xulqni mashq qildiradigan shart –sharoit tug'dirish.

8. Maktabgacha ta'lim muassasasi bilan oilaning aloqasi va boshqalar.

Bolalarni manaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usullari bir kancha o'ziga xos shart sharoitlari takazo etadi. Bu shart-sharoitlar quyidagi yo'nalishlardagi masalalarda namoyon buladi:

1. Ota-onalarni bolalar tarbiyasiga ijtimoiy va pedagogik jihatdan tayyorlash. Chunki ota-onalar oila tarbiyasida o'z vazifalarini aniq bilmasalar ular bolalarni tarbiyalay olmaydilar.

2. Bolalarni o'z tengqurlari bilan bo'ladigan munosabatlarga tayyorlab borish.

Bu bolalar maktabgacha ta'lim muassasi mahalla va maktabda olib boriladigan tarbiya jarayonidir.

3. Bolalar oldida o'z xurmatini yo'qotmaslik.
4. O'zaro munosabatlarda aldov, qo'pollik ikkiyuzlamachilikka yo'l qo'ymaslik.
5. Tarbiya jarayonida bolalar xulq-atvori, ruhiyati, jinsi va yoshiga e'tibor bergan xolda ularga yondashishi.
6. Atrofda oila tarbiyasida uchraydigan xato va kamchiliklar hamda tarbiyasi og'ir bolalar muammosini unutmaslik va o'z oilasida bunga yo'l qo'ymaslik.
7. Rivojlanishida ayrim fiziologik nuqsonlar bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasiga ehtiyotkorona yondashish.
8. Oilada bolalarni mehnatga o'rgatish.
9. Bolalarning o'qish, ishlash va dam olishlarini to'g'ri tashkil etish.
10. Bolalarni atrofda uchraydigan salbiy holatlarda nafrat hamda ularga qarshi kurashish ruxida tarbiyalab borish .

Ushbu ijtimoiy asoslardan kelib chiqqan xolda oilada bolalar manaviy- axloqiy tarbiyasini milliy qadryatlar asosida shakllantirishning quyidagi ijtimoiy-pedagogik usullarini ko'rsatish mumkin bo'ladi:

Ota-onalarning kundalik muomala usullari:

- o'zaro ta'sir usullari;
- o'zaro hamkorlik usullari;
- birgalikda ishlash usullari;
- bolalar shaxsini hurmat qilish va qullab-quvattlash usullari ularni tushunish, ishonish hamda anglash usullari;
- bolalarni ishontirish usullari, bu suxbat, ishonch bildirish, baxs-munozara, namuna, yo'naltirish, maqto'v, xotolardan ogoxlantirish, o'zaro xamkorlik usullari.

2. Psixologik ta'sir usullari:

- individual yondashish usullari. Bolalar bilan o‘zaro ishonch va maslaxat ohangida suxbatlar o‘tkazish;
- bolalar bilan turli xil xalq o‘yinlari o‘tkazish;
- bolalar bilan turli xil psixologik mashqlar utkazish;
- bolalar bilan muloqotda yuzaga keladigan psixologik muammolarni xamkorlikda taxlil qilish usullari;
- milliy-badiiy asarlardagi xalq qahramonlari obrazlarini jonli yetkazish va ularning ijobiy fazilatlarini yoritib berish usullari;
- bolalarda o‘z milliy mentalitetimizdan kelib chiqadigan ruhiy-irodaviy tarbiyani shakllantirish usullari;
- bolalar bilan “O‘zbek xalq ertaklari dunyosiga sayohat”, “Fantaziya xonasiga kirish”, “Sirlar olamiga sho‘ng‘ish”, “Vaqt mashidasida o‘tmishga sayohat” kabi mashg‘ulotlar hamda o‘yinlar o‘tkazish usullari;

3. Nutq orqali (verbal) ta’sir usullari:

- izoh va tushuntirish;
- hikoya va ertak;
- ma’ruza va bahs;
- savol-javob usullari.

4. Milliy qadriyatlarni namoyish etish usullari:

- fotolavhalar namoyishi;
- illyustratsiyalar namoyishi;
- milliy qadriyatlarning o‘zgarish, rivojlanishi kuzatish usullari.

5. Amaliy usullar:

- bolalar bilan hamkorlikda mehnat, osori –atiqalar, obidalar, eski qo‘lyozma yoki kitoblarni asrab-avaylash;
- bolalarni turli saylgoh va ziyoratgohlarga olib borish;
- xalq milliy bayramlarida va yirik umumxalq tadbirlarida ishtirok etish.

6. Milliy adabiyot, tarix, san’at va madaniyatga oid asarlarni o‘rganish usullari:

- bolalarga milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid kitoblardan olib berish;
- milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid asarlardan ko'chirmalar, nusxalar olib, ularni bolalarga etkazish;
- bolalarda milliy rassomchilik, haykaltaroshlik va xalq amaliy hunarmandchiligi namunalariga nisbatan qiziqish uyg'otish hamda nodir asarlar bilan ularni tanishtirish;
- bolalar bilan birga dars tayyorlash, turli qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazish.

7. Milliy qadriyatlarimiz asoslarini yorituvchi videoko'rsatuvlar, filmlar hamda lavhalarni bolalarga ko'rsatish;

8. Bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda maqsadga yo'naltirish usullari:

- bilimlarni egallashga yo'naltirish;
- ko'nikma-qobiliyatlarni shakllantirish;
- qadriyatlarga ijodiy yondoshishga o'rgatish;
- o'z qiziqishlarini amalga oshirishga yo'naltirish;
- bolalarga o'zlari olgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishga o'rgatish;
- olingan barcha bilim va ko'nikmalarni milliy qadriyatlarimizni o'rganish va asrab-avaylashga yo'naltirish.

O'zbek oilasida vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e'tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazish kelajagi buyuk o'zbekistonning gullab-yashnashi uchun garovdir,

Yuksak ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabn vazifalarni anglab etadi va unga amal qiladi. Yuksak ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi.

Ma'naviyat ilm-fan, falsafa, ahloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar, din va boshqa ko'plab tarixiy amaliy va

zamonaviy qadriyatlarning ta'sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota-onaga, katta yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi.

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan g'ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. o'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, diini, madaniyatidan g'ururlanishi, uni avaylab -asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan», «sen ulug' mutafakkirlar, allomai-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyori» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Birinchi yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu iarsa ularning sobitqadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir». Shu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir oilaning, fuqaroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

Yurtboshimiz o'zlarining nutqlarida yoshlar tarbiyasi, oilada tarbiya masalasiga barchaning diqqatini qaratayotgani bejiz emas, chunki XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli,

yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oilada hayot tajribasiga ega, turmushning achchiq-chuchugini qurgan, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimiz va ota-onalarning, shu bilan birga, mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Sir emaski, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun va mohiyatini teran anglamaslik, loqaydlik, mahalliychilik, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga beparvolik oila ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi illatlardir. Buning oldini olishning muhim vositalaridan biri oilada bo'sh vaqtni samarali tashkil etishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida aytganlariday, «San'atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmag'ur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa hatto axloqiy buzuvchilikni targ'ib qilishlar ko'rinib kolgan» edi.

Bunday milliy urf-odatlarimiz va axloqimizga zid keladigan qiliqlar qaerdan paydo bo'ldi? Davr taqqozosimi? Insoniyat kamoloti ifodasimi? Yoki ma'naviy-tarbiyaviy ishlarimizning tug'ri yo'lga qo'yilmaganligimi?

Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob chuqqisiga olib chiqishda namoyon bo'ladi.

Odamlarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hozirgi kundagi tarbiyaviy-ma'naviy faoliyatimizning asosini tashkil etmokda. Bunga sabablar kup. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutulish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan, kezi kelganda xuruj qilib turadigan qusurlardan qutulish ehtiyoji ham mavjud. Mustaqillik zamoni ana shunday ob'ektiv va sub'ektiv insoniy xususiyatlar, fazilatlarni poklantirish yuliga, azaliy va milliy taraqqiyot o'zaniga solib yubordi. Milliy kadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'zining umumbashariy mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Milliy an'ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik prinsipga asoslanganki, kimki o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

O'z tarixini, ma'naviyatini, qadriyatlarni o'zi bunyod etuvchi xalq, elat va millatlarga endi shunday imkoniyatlar yaratilmoqdaki, xalqimizning ham jaxon xalqlariga faxrlanib, iftixor tuyg'usi bilan ko'z-ko'z qiladigan fazilatlari qanchalik mul-ko'l bulsa, yangi tug'ilib, shakllanib qoladigan qusurlarni bartaraf etishga ham aqli va zakovati etarlidir. Buni milliy urf-odatlarimiz, axloqu odobimiz, chin insoniy ne'matlarimiz taqozo etadi.

Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'analарimiz qayta tiklanganda islohatlar muvaffaqiyatga erishadi. o'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqloл va taraqqiyot yulini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bulib xizmat qiladi».

Oilaviy bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shikdaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordiq, chiqarishni, milliy sport o'yinlari va musobaqalarini, tarixiy obidalar va qadamjolarga sayoxatlar uyushtirish, boshqa millat ma'naviyatiga hurmat bilan munsobatda bo'lish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor berish, farzandlarga kasb-xunar o'rgatish, oilada bo'sh vaqtni ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila ma'naviyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu o'rinda Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha

1998-2000 yillarga mo'ljallangan Dastur»i muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma'naviy-ma'rifiy yuksakligiga erishish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan isloxlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etar ekan, bu boradagi ishlarining tamal toshlari aynan oilada qo'yiladi. Jamiyat ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq ishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida olib borilmoqda, bu albagga oila bilan ham bog'liqdir:

- mahallalar, oilalar va xotin-qizlar orasida amalga oshiriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tarzida;
- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumtalim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quvchi, talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o'rtasida olib borilayotgan tadbirlar;
- ommaviy-axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, samaradorligini oshirish bilan bog'liq; ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yunalishlarda tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish;
- xalqlar, millatlararo do'stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta'miilashga qaratilgai tadbirlar;
- madaniy-ma'rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan aholining ma'naviy madaniyatlik darajasini oshirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiradigan tadbirlar;

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ishlar oilasiz, oila a'zolarining ishtirokisiz bo'lishi mumkin emas.

Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musobaqalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansambllarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, milliy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy

estrada san'atini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimiz, istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan ko'rgazmali targ'ibot vositalarini shakl va mazmun jihatidan rang-barangligini ta'minlash, xalq og'zaki ijodi namunalarini kuylovchi oilaviy baxshilar va ularning sulolalari chiqishlarini tashkil etish va ularning ijodlari asosida hujjatli filmlar yaratish va ularni har bir oilaga kirib borishini ta'minlash ma'naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, ma'naviy tubanlik, zo'ravonlik kabi illatlarni batamom yo'q qilishga erishish maqsadida har bir idora va tashkilotda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoa xo'jaliklarida maxsus «ma'naviyat kunlari», «ma'naviyat saboqlari»-o'quvlari; muzey, tarixiy qadamjolariga sayohatlar Vatan mehnat qahramonlari, tarixiy va taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish; ijodkor oilalar, yoshlar klublari tashkil etish; ajdodlarimiz madaniy merosi, urf-odatlar, tuy va motam marosimlari, xalq og'zaki ijodi, o'zbek milliy xunarmandchilik na'munalarini yig'ish, o'rganish va kelgusi avlodlarga etkazish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish oilada ma'naviy yuksak avlodni shakllantirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Oila-mahalla; oila-maktab; oila-jamoatchilik; oila- oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalari hamkorligi tizimi asosida o'tkaziladigan tadbirlar albatta ijobiy samara berishi tabiiy.

Xalqimizda shunday milliy odat, an'ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yuqligidan tashqari (men boshqa millatlarning yaxish sifat va an'analarini kamsitayotganim yuk,), insoniyat ma'naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyrotishga imonim komil. «o'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil, — degan edi I.A.Karimov. — Bizlar to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining xolidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning

izzatini joy-joyiga qo'yib, beva-bechoralarning, etim-esirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlarning farzandlari bulamiz»

1. Jamoaga suyanish va jamoatchilik fikrini hurmat qilish xalqi- mizning eng olijanob fazilatidir. Buni mahallalardagi ijtimoiy-axloqiy rasm-rusumlar isbot qilib kelmoqda. Birgina to'y marosimimizning o'zini milliy fazilatlarimizning guldastasi desa bo'ladi. Uzbek xonadonidagi birorta tuy kengahsiz, maslahatsiz o'tmaydi. hatto kelin va kuyov tanlashdan boshlanadigai odatlarimiz ham kelajakdagi yosh oilaning tinch-totuvligini nazarda tutadi: kimning farzandi, ota-onasi qanaqa odamlar, mahalla-kuyda obro'si qanaqa, mustaqil oila tebratib ketishga qurbi etadimi, yomon qiliq, yoki odatlari yuqmi, qarindosh-urug'lari qanaqa odamlar, hatto avlod-ajdodlarida biror anduhik alomatlari bo'lmaganmi? Bu savollarga ijobiy javob olingachgina ikki tomon o'z rozi-rizoligini beradi. Bunday odatlarimizning nimasi yomon? ha, deb bunaqa savollar bilan kelin yo kuyov izlansa, yoshlarning mustaqilligi, mudabbati poymol etilmaydimi, degan e'ti-rozlar bulishi mumkin. To'g'ri, ba'zan ota-ona obrusi muhabbatdan ustunlik qilgan dalillar uchraydi. Lekin, umuman olganda, sinab-surishtirgan oilalarning qudachiligi, ota-onalar bosh-qosh bo'lgan to'yu-tomoshalarning natijasi yaxshi bo'lishi hammaga ayon.

O'zbekona jamoat fikriga va jamoat bo'lib ish yuritish fazilatimiz diqqatga sazovor. To'ylarimiz ko'pchilik uchun jamoa tomonidan o'tkaziladi. To'y oldidan bo'ladigan maslahatlar, qarindosh-urug'ning erta sahardan kelib, to'yxona oldida ko'l qovushtirib, nozik tavoze ila mehmonlarni kutib olishlari, hovlida esa to'y mutasaddilarining odamlarni joylashtirib oldiga iltifot bilan choy va osh tortishlari — bu milliy odatlarimizning ko'rki emasmi? Etti yot begona odamlar mahalladan stol-stul tashishsa, qazon, samovar, choynak-piyola olib kelsa, to'y tarqalguncha mezbon yonida tursa — bunaqa olijanoblik, bunaqa jamoaviy rux, va mexrni kayorda ko'rgansiz?

Odamlarning boshini qovushtiradigan, ularni bir tan bir jon bo'lib mexnat va

roxadtga jalb etadigan purxikmat urf-odatlarimizni sanab ado etib bo'lmaydi. «Hashar» deb atalgan shunday milliy udumimiz borki, uning ta'rifi xar qanday millat odamlarini xayratga soladi. «Vaqt — pul» degan aqida butun dunyoga ildiz otgan paytda o'z vaktini tekinga, odamgarchi-likka, milliy urf-odatga beminnat baxshida etish insoniy ex,sonlikning chukdisi emasmi?

Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-urug'chilik va hokazo ma'naviy ziynatlarimizni o'ylasak, ko'z oldimizga birinchi galda Ab-dulla fodiriyning «o'tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o'zbek xalqining' milliy fazilatlarini ulug'lovchi, uni dunyodagi eng nozikta'b xalqlar qato-riga olib chiqib, kuz-kuz qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yuq. o'quvchilar hatto etnografik yunalishda bulsa-da, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'ygotadigan o'zbekona asarlarga chanqoq bo'lib yurgandek tuyuladi.

Inson kamolotining ko'rinishlaridan biri – obro'-e'tiborga ega bo'lishdir. Obro' bir kun yoki bir yil mobaynida hosil bo'ladigan jarayon emas. Obro'ni inson hayot mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-onaning oiladagi obro'si tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro' oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ma'naviy ahloqiy hislatlarni, zamon ruhiga moc tushadigan fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, baxslar mulohazalar o'zaro tenglik, hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarining ushbu ko'rinishda turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjuddir.

Shu boisdan tasodifiy voqea va xodisalarning sodir bo'lish turli tarzda baxolanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan xolda yo rag'batlantiriladi yoki tanbeh beriladi, jazolanadi. Bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'gil-qizlar ruhiy dunyosida ota-onaga nisbatan dilkashlik, xushmuomalalik, o'z faoliyati uchun javobgarlik, o'z-o'zini boshqarish kabi muhim insoniy fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilada munosabatning yana bir turi «avtoritar» -- yoki «obroʻtalab» munosabat deb atalib, bunda ota-onaning obroʻsi shaxslararo muloqotda hal qiluvchi, etakchi rol oʻynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin hatti-harakat qilish, tashabbuskorlik bunda oʻz ahamiyatini yoʻqota boshlaydi. Oila aʼolarining yurish-turishi, hatti-harakati koʻpincha kattalar tomonidan cheklab qoʻyiladi.

Ota-ona tomonidan tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biroq, onda-sonda ragʻbatlantirish usulidan foydalanilganda ham maʼnaviy ragʻbatlantirish imkoniyatiga ega boʻlmaydi, munosabatlardagi bunday noxushlik ota-ona koʻzlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning oqibati natijasida oila aʼzolari oʻrtasida, mehr-oqibat hissi pasayadi. Ushbu paydo boʻlgan salbiy nuqtai nazar ota-onaga nisbatan qoʻllaniladi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muxabbat hissi bir oz boʻlsada kamayadi, keyinchalik bu tuygʻu uzoqlashishi «begonalashish» tomoniga oʻsib oʻtadi.

Oilaviy turmush munosabati ichida «liberal» (murosasozlik) toifasi ham koʻzga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, koʻngilchang boʻlishlik tashqi koʻrinishidan iliq ruhiy iqlimini oʻziga aks ettirganday boʻlib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, oʻzaro tushunish etishmaydi. Murososlik tasirida farzandlar feʼl-atvorida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Ota-ona obroʻsi oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi.

Buyuk allomalarning mulohazalariga koʻra, tarbiyada hazilga yoʻl qoʻyuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak.

SHu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya prinsiplari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, ragʻbatlantirish singari

qator usullaridan o'z o'rnida va me'yorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Mezon tuyg'usi va me'yor hissiga amal qilish ota-ona ruhiy dunyosiga, ma'naviyatiga singib borsa, u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish, anglashilmov-chilik g'ovining vujudga kelishi, bachkanalashish, badjaxllik, asabbuzarlik hulq-atvori namoyon bo'lmaydi.

Tarbiyaning muhim roli nutq hisoblanadi, shuning uchun ota-ona o'z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so'zlarini ishlatish va qo'llash bilan farzandlarni ranjitmaslik, ularda ishonch hissini so'ndiradigan, hazil-mutoyiba, samimiy bo'lmagan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuxanlikka, samimiylikka, sof vijdonligi, dilkashlik va hotamtoylikka hamdardlikka nima yetsin!

Odatda, ota-ona nazokatli bo'lgandagina haqiqiy obro'-e'tiborga erishadi. Bundan tashqari obro'li bo'lmoq uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo'lishi, shuningdek aqliy, ahloqiy estetik jihatdan muayyan cho'qqiga erishgan bo'lishi darkor. Bularning barchasi ota-onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarini mukammal egallagan shaxs bo'lishni talab qiladi.

Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi bolada e'tiqodni shakllantirishdir. Buni bolani faqat ishontirish yo'li bilan amalga oshirsa bo'ladi. Shuning uchun ota-ona o'g'il - qizlarni voyaga etkazishda ularni ko'r qilishga yoki asosiz buyruq berishga tayanmasligi kerak. Xo'sh, ota-ona obro'si farzandlarda qachon paydo bo'ladi?

Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obro'si davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Mabodo ota-ona o'z ishi, o'z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioya qilsa, mana shu narsa ularning obro'-e'tibor kozonishi uchun asosiyzamin hisoblanadi. Ularning ruhiy dunyosi, ma'naviyati oilaviy iliq muhit uchun etarli va ta'mirchan bo'lsa, o'z-o'zidan obro' qozonilaveradi, oila a'zolari

o'rtasida mehr-muhabbatga erishadi.

Bunday obro' farzanddar hayrixohligi va hamdardligiga sazovor bo'ladi. Natijada oila a'zolari totuv, osoyishta, inoq, ahil, xotirjam, hamjixat turmush kechiradilar. Oiladagi farzanddar yuksak his-tuyg'uli, ma'naviyatli, madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa oladilar, ular ota-onalari bilan bexad faxrlanadilar, his-hayajonga to'ladilar va shu g'urur bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarur shaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar faqat tazyiq o'tkazish yo'li bilan farzandlari hamda boshqa oila a'zolari davrasida obro' orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo'rqitish, buyruq berish, ruhan ezish, tahqirlash, u tazyiq o'tkazish usullarini qo'llaydilar. Goho ular zaxarxandalik va badjallikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Qo'rqish asosida bolada vujudga kelgan «tobelikni», «bo'ysunishni» ular o'zlaricha farzandlari davrasida erishgan obro'si deb o'ylaydilar, tarbiyaning bu usuli yuqorida aytib o'tilganidek avtoritar deb aytiladi.

Ayrim ota-onalar esa o'z farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lishni, o'zlarini ulardan uzoqroq olib yurishni shu yo'l bilan obro' orttirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazarida go'yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma'lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin emish. Bu noto'g'ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lishsa, ularning ruhiyati bilan yaqindan tanishmasa, o'z ta'sirini o'tkazmasada, ular o'rtasida begonalashish, befarq bo'lish, his-tuyg'ulari, ishonishlari, xohishlari kelib chiqadi.

Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga faqat rasmiyatchilik bilan munosabatda bo'lish orqali obro' orttirishga harakat qilishadi.

O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyiq qidirishadi, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan asl sababdan ko'z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab

qo'yishadi, bo'lar-bo'lmasga tanbeh berishadiyu, arzimaz harakat uchun jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko'p pand-nasihat qilaverish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko'mak uchun ham uzundan-uzoq o'git-nasihat qiladilar. Farzand erkini poymol etib, mustaqil fikr yuritishi, intilishini oyoq osti qilishgacha borib etadilar. Ular o'zlarining nasihatgo'yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar.

Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro' orttirishmoqchi bo'ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe'l-atvorida, na ma'naviyatida qat'iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Tilyog'lamachilik, soxtalik, sun'iylik bilan bolada yuksak insoniy hislatlarni, olijanob his-tuyg'ularni, irodaviy sifatlarni tarkib toptirib bo'lmaydi.

Ota-ona obro'sini orttirishda ibrat ko'rsatish usuli muhim rol o'ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o'zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o'zlarida etishmaydigan sifatlarni egallab borib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onaning tarbiya jarayonidagi iste'dodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir.

Ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun qator chora tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari darkor.

Ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir.¹CHin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-ona qimmat vaqtlarini o'z norasidalaridan xech mahal ayamaskliklari kerak.

Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirligi,

fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning o'z farzandlariga va oilaning boshqa a'zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi obro' o'rttirishning eng muhim yo'lidan biridir. Farzandlarining

kuchiga, qobilyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqat-e'tiboriga, irodaviy hislatiga, qiziqish-lariga, ko'nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berilishi va o'z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rag'batlantirish bolalarda qat'iylik va dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil intimini, tashabbus ko'rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi.

Ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro'ning uzviy zanjirlari hisoblanadi. Ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik urtasida va oila davrasidagi samimiyligi va g'amxo'rliqi ularga katta obro' keltirishi mumkin.

Ulardagi samimiylilik, g'amxo'rlik fazilatlari farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta'sir etadi, ruhlanish, to'liqlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli hislatlari, shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatleri, o'z-o'zini qo'lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatleri shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma'nodagi nazokat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak.

2.2.KATTA GURUHDAGI BOLALARDA AXLOQIY MILLIY QADRYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ RIVOYAT VA HIKMATLARIDAN FOYDALANISH

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalar tarbiyasida ahloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ta'lim berish; kun davomidagi maishiy faoliyatda; mustaqil badiiy faoliyatda, ko'ngil ochishlarda qatnashtirish orqali bu ish hal etiladi.

Har xil bayramlar, san'at vositalari, ijtimoiy hayot voqyealari, bolalar badiiy adabiyoti, musiqa, ashula, tasviriy va amaliy san'at; o'yinchoq va o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, oynan jahon va radio, kino va diafilmlar, diapozitivlar va boshqalar bolalarning ahloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hamma vositalardan keng ravishda, ma'lum izchillik va sistemalilik bilan foydalanilgandagina bolalarning ahloqiy tarbiyasiga samarali ta'sir etish mumkin. Masalan, kichik yoshli bolalar ahloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin – mashg'ulotlarda yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan ahloqiy tasavvur va tushunchalarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari daslab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat, yaxshi yo'lga qo'yilgan kun tartibidagi ayrim tadbirlarda, sayr va ekskursiyalarda, shuningdek bolalarning mustaqil faoliyatlari orqali amalga oshiriladi.

Bolalar ahloqiy tasavvur va bilimlarni, madaniy xulq malakalarini o'zlashtirib olishlari lozim.shu bilan bir qatorda ularda ahloqiy his –tuyg'ular va shaxsning ahloqiy sifatlarini ham tarbiyalab borish lozim. Bolalar bog'chasi ta'lim –tarbiya dasturida belgilab berilgan ahloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni ma'lum sistema va izchillik bilan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi zarur. Buning uchun istiqbol rejasi tuziladi.

Unda ahloqiy tarbiyaning har bir mavzusi bo'yicha ta'lim –tarbiya ishlarining butun sistemasi va izchilligi, pedagogik jarayonni tashkil etishning har xil shakllari aks ettiriladi.

Axloqiy tarbiya metodlari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ahloqiy tarbiya berishda har xil yetod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya metodlari –bolalarning ahloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishiga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning ahloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1 guruh –ahloqiy ongini, ya'ni ahloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2 guruh –madaniy xulq –avtor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3 guruh –ahloqiy his –tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar.

Hamma guruh metodlari ahloqiy his –tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlaydi. Ko'rsatmali og'zaki metodlar, tushuntirishni ko'rsatish bilan qo'ib olib borish, tarbiyachining hikoyasi, o'qib berish, ahloqiy mavzularda suhbatlar o'tkazish (rasmga qarab, tajribaga asoslanib, o'qilgani bo'yicha) kuzatish, rasmlarni namoyish qilish, bolalar adabiyoti va hayotdagi ijobiy misollardan foydalanish asosida olib boriladi.

Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga ahloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqyealari o'rgatiladi, ularda ahloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi.

Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga ahloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqyelar o'rgatiladi, ularda ahloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi.

Bu guruh metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar: bolalarning yaxshilik va yomonlik to'g'riisdagi tasavvurlarini e'tiborga olish, ahloqiy xulq –atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish;

har bir bolaning his –tuyg'usiga ehtiyojlik bilan munosabatda bo'lish.

Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iyman etiladi. Hamma metodlardan ma'lum izchillik bilan, kompleks ravishda foydalaniladi.

Har bir metod o'ziga xos bo'lib, ma'lum vazifani bajaradi. Buni bir qator misollar orqali ko'rib chiqamiz.

Tushuntirish bu ko'pincha bolalarga yangi ahloqiy shuncha, norma, qoida bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan: Ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab, u kishining yuziga qarab, kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim. Ahloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhlarida qo'llash mumkin. Hikoyaning mazmuni yorqin tushunarli bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak.

Bu metodning asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi:

- Bolalarda ijobiy ahloqiy hislarni qo'zg'ata olish, asar –qahramonlariga hamdardlik bildirish – yutug'idan quvonib, muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish;

- Bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim ahloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

- Ahloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda sayrlarda, bolalarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar ahloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda ahloq qoidolari va normalariga nisbatan talab yuzaga keladi.

Bolalarning ahloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning ahloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikr mulohazalarini aytishlariga keng imkon boriladi. Shunda ular har bir xatti –harakatini ongli ravishda, ahloq normalari va qoidolari doirasida bajarishga urinadilar.

Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg'otadi, shu bilan bir qatorda ahloq qoidolari va normalarini singdirib boradi.

“Non qadri “haqida rivoyat

Sanobar bugun bog`chadan kelib, ustini apil-tapilal mashtirib, oshxonaga chopti. Uning oyisi oshxonada shoshib ovqat tayyorlayotgan edi.

- Oyijon tezroq ovqat bering, qornim juda ochib ketti,-dedi, Sanobar.

Dildora opa esa:

Qizim ovqatim holi tayyor bo`lmagan edi.Non bilan tokchada turgan murabboni yeyaqol,-dedi.

Bu gap Sanobarga yoqmadi.

-non ham ovqatmi?- deb oldida turgan nonni hovliga olib chiqib, kuchukka berib yubordi. O`zi esa xonasiga kirib ketdi. Dildora opa qizidan xafa bo`lib qoldi. Chunki bugun o`zi ham ishdan kech qaytgan edi. Shutu fayli ovqati tayyor bo`lmagan edi.Shupayt Sanobarning dadasi ham ishdan keldi. Dildora opa bo`lgan barcha voqeani Davron akaga aytib berdi. Davron aka bir oz o`ylanib turdida so`ng menda zo`r fikr bor deb, Dildora opaga birnimalarni tushintirdi.

Oradan bir kun o`tdi. Bugun ham Sanobar huddi kechagiday bog`chadan kech qaytdi. Ustini almashtirdida oshxonaga kirdi. Barcha oila a`zolari- dadasi,oyisi, ukase dasturxon atrofida tushlik qilayotgan edi. Sanobar o`z o`rniga o`tirdi yuoyisidan ovqat so`radi. Oyisiuning oldiga bir kosa sho`rva qo`ydi. Sanobar ovqatdanozginaichib,

dasturxondan birnimani izlay boshladi. Ammo u stol ustida yo`q. Sanobar oyisidan non so`radi. Oyisi esa:

Sanobar uyda non tugab qoldi, dadanga aytgan edim, olib kelish yodidan ko`tarilibdi, men esa xamirni endi qoridim. Kecha nonni tashlab yubormaganingda hozir yetaredi. Bizlar yarimta nonni bo`lib yedik, senga esa qolmadi,-dedi.

Shunda Sanobar:

- Menga ham olib qo`ysalaringiz bo`lar ediku,-dedi.

Dildora opa esa :

Kecha o`zing non ovqatni degan edingku,-dedi.

Shu payt Sanobar qilgan ishidan pushaymon bo`lib, yig`lab yubordi. Bir ozdan so`ng, Dildora opa qutida turgan ikkita nonni Sanobarning oldiga qo`ydi. Qiz esa hech narsaga tushinmay hayron bo`lib qoldi.

- Bizlar sening non qadrini anglab yetishingni istaganedik,-dedi dadasi.

“Dono momo” rivoyati

Qadim zamonda bir qishloqda qurg`oqchilik bo`lib ,ekinlar qurib qolibdi. Daraxtlardagi mevalar ham pishib yetilmay qurib yerga to`kilib tamom bo`libdi. Xalq juda qiynalib ochlik azobini tortibdi.

Bu o`lkadagi ahvolni eshitgan qo`shni mamlakatdagi zolim podshoh shu o`lkaga urush e`lon qilibdi va son-sanoqsiz askarlari bilan bostirib kela boshlabdi.

Xalq sarosimaga tushibdi, jon saqlab qolish uchun to`rt tarafga qocha boshlabdi. Shunda bir kulbada yashaydigan momo ularni to`xtatibdi.

Bolalarim ,azizlarim- debdi momo baland ovozda- yurtni tashlab ketish- katta gunoh. Xalq boshiga tashvish tushib turgan paytda bunday qilish er kishining ishi emas. Irodangizni mustahkam qiling. Ochlik deb shunday qilayotgan bo`lsangiz, menda bir ne`mat bor. Shuni bo`lib yediray kuchingizga kuch , quvvatingizga quvvat qo`shiladi , deb bir xaltacha olib chiqibdi. Odamlar qarab turishgan ekan xalta bo`m- bo`sh emish. Oralarida sabrsiz odamlar ham bor ekan.

- Voy, momo-ey, axir, xaltada hech vaqo yo`qku-debdiular .Shunda momo:

-Shoshma bolam, shoshish shaytonning ishi – debdida xaltaning bir burchagidan bir mayizni olib ularga ko`rsatibdi.

-Mana men aytgan ne`mat. Bu oxirgisi sizlarga nasib etgan ekan-deb toshning ustiga qo`yib, bo`la boshlabdi. Shunda sabrsiz odamlardan biri

-Bu kampir bizni yo`ldan qoldirib, yovga qurbon qilmoqchimi- debdi.

-Yo`q bolam sabr tagi sariq oltin ,noumid bo`lmanglar, mana mayizni qirqqa bo`ldim, ularni olib og`izlaringa solinlar, o`zingizni qanday his tezda etishni bilasizlar- debdi.

Odamlar mayizni tamshanib yebdi. Shunda mo`jiza yuz beribdi. Hammalari o`zlarida kuch-quvvat sezibdi. Va qochish haqida fikrdan qaytib, yov tomon birlashib boribdi. Uch kechayu uch kunduz jang-u jadalidan so`ng, bir mayizni qirqqa bo`lib yegan yigitlar to`g`ri kampirning oldiga boribdi va unga ta`zim qilishibdi. Chunki ular g`olib chiqdi. Vatanni yovda himoya qilgan edilar.

II gurux metodlariga amaliy va o`yin metodlari kiradi: bular o`yin –mashqlar, mashqlar, muammoli vaziyatlar, izlanuvchanlik faolityai, pedagogik masalalarni yechish, didaktik va harakatli, sahnalashtirilgan o`yinlar, inspenirovkalardir; bolalarning hamma faoliyatiga rahbarlikni ham shu guruh metodlariga kiritish mumkin (o`yinining hamma turlari, mehnat, tasviriy faoliyat va shunga o`xshashlar). Bu hamma metodlar ahloqiy tasavvur va tushunchalarni mustahkamlashga, bolalarda ahloqiy tajribani to`plashga, axlo normalari va qoidalarini ongli ravishda egallab olishlariga yordam beradi.

Mashq (o`yin kichik bog`cha yoshidagi bolalar uchun mashq hisoblanadi) – ahloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta`sirli usulidir. Unga qoidalarni mashq qildirish –foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o`rgatilgan tajribani yangilash; nazorat –o`rgatilgan odatning to`g`ri va samarali ekanligini tekshirishdir, o`z –o`zini nazorat qilish bolani faollashtiruvchi shaxsiy gigiyena qoidalarini, ovqatlanish madaniyatini, ko`chada, bolalar bog`chasida xulq madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo`la oladi.

Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatdan mashqqa juda yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni bolada faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya –vaziyat (tugallanmagan hikoya) tavsiya etiladi, masalan, bironta hikoya ma'lum yerida to'xtatiladi.

Tarbiyachi bolalarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Bolalarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Keyinchalik bolalarga real muammoli vaziyat taklif etiladi: futbol o'yini ketayapti. Bitta komandaning kapitani yaxshi o'yinchi, uning komandasi har doim yutib chiqadi. Mana shunday voqea sodir bo'ladi: u komandadagi bir o'yinchi koptokni noto'g'ri tepgani uchun uni qattiq uradi. Undan o'yinchi bilan qo'pol munosabatda bo'lgani uchun o'yinchidan kechirim so'rash talab etiladi. U kechirim so'rashdan bosh tortadi, demak, uni o'yindan chetlashtirish kerak. Katta guruh bolalariga avval tarbiyachining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

Axloqiy tarbiya berishda uchinchi guruh metodlari ham muhim rol o'ynaydi. Bu guruh metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy ahloqiy sifatlarni mustahkamlash, bola hулqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalanadi. Bunda tushuntirish, ishontirish, suhbat shakllari qulay bo'ladi.

Tushuntirish bolalarni xulq qoidalar bilan tanishtirishda keng qo'llaniladi va ko'pincha ko'rsatish bilan bog'lab olib boriladi.

Ishontirish tarbiyachining faoliyatida katta yordam beradi ("Kasal bo'lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo'lni yuvish kerak", "O'rtog'ini urish yomon"). Rag'batlantirish va jazolash ahloqiy tarbiyaning qo'shimcha metodi bo'lib, u asosiy metodlarga ta'sir etishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladagi ijobiy xulqni qo'llab –quvvatlash, unday xatti –harakatni fallashtirish yoki bo'lmasa bolani yomon qiliqlardan qaytarish uchun rag'batlantirishdan foydalanadi.

Bolalar bog'chasidagi rag'batlantirish shakllari: maqtash, ma'qullash, bolaga o'yinda bosh rolni berish va shunga o'xshashlardir. Ammo bolani arzimagan yutug'i

uchun ham maqtash kerak emas. Erishilgan natijalardan, yaxshi xulqdan, yaxshi ishdan qoniqish eng katta mukofot bo'lishi kerak.

Tanbeh, ma'qullanmaslik, yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini bermaslik va boshqalar – jazo shakllari hisoblanadi. Jismoniy jazo qat'iyn man etiladi. Jazoning bosh vazifasi yuzaga kelgan nizolarni bartaraf etish, yangisining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikdir (masalan, bolani jazolash uchun unga hech narsa bermay stulga o'tkazib qo'yiladi, u shu vaqt ichida bir qancha bolani urishga va o'yinchog'ini tortib olib sindirishga ulgurardi). Shuning uchun tarbiyachi tarbiyaviy jarayonni jazosiz, yaxshilik bilan, foydali ishlarni tashkil etish bilan olib borishi kerak.

Mashg'ulotda har doim I, II va III gurux metodlaridan kompleks ravishda foydalaniladi.

Bolalar har qanday vaziyatda ham yaxshi xulq namunaarini ko'rsatishni akllantirib borish zarur. Sekin –asta jamoa hayotida yuzaga kelgan nizolarni avval tarbiyachining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda haqgo'ylik bilan bartaraf etishga o'rgatib boriladi. Bola katta bo'lgan sari uning shaxsiga murakkabroq ahloqiy talablar qo'yila boshlanadi. Axloqiy qoida va normalrni kichkintoylarning odatiga aylantirish ahloqiy tarbiya sistemasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart –sharoitlari quyidagilardan iborat:

1. Axloqiy tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ya'ni pedagog va bolalarning o'zaro munosabatlari bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan qarashga asoslanishi kerak.
2. Pedagogik jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda bolaning o'zi ijobiy odatlarni egallab borsin, salbiy xususiyatlarni yo'qotishga intilsin.
3. Axloqiy tarbiya bolaning ijobiy xulqiga asoslanib amalga oshirilishi zaruryu
4. Bolani tarbiyalash uchun yaxshi hissiy muhit yaratish kerak. Jazolash bilan ham, qo'rqitish bilan ham bolada ijobiy ahloqiy sifatni tarbiyalab bo'lmaydiyu

5. Bolada ahloqiy odatlarni shakllantirish uchun undagi ma'lum odatlarga asoslanish kerak.
6. Odatdagi harakatlar ijobiy natija berguncha mashq qildirib boriladi.
7. Bolaga ta'sir etishda uni tarbiyalashda ishtirok etuvchi hamma shaxslar o'rtasida birlik bo'lishi kerak.
8. Ijobiy odatlarni yuzaga keltiruvchi qiziqarli faoliyatlarni tashkil etish lozim.

Shunday qilib, bolalarning ahloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi qizg'in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida ahloqiy his –tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llaydi, chunki u shunday qilingandagina yaxshi xulq namunalarini o'rgatishi mumkin.

II BOB BO'YICHA XULOSA

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usullarini quyidagicha tasnif etishimiz mumkin: Ota-onalarning kundalik muomala usullari. Psixologik ta'sir usullari. Nutq orqali ta'sir (verbal) usullari. Milliy qadriyatlarni namoyish etish usullari. Amaliy usullar. Milliy adabiyot, tarix, san'at va madaniyatga oid asarlarni o'rganish usullari. Milliy qadriyatlarimiz asoslarini yorituvchi televideoko'rsatuvlar tashkil etish usullari. Maqsadga yo'naltirish usullari.

Milliy qadriyatlarni bilishga va o'rganishga qiziqtirish usullari. Bilimlarni o'zlashtirish usullari. Mustaqil ishlash usullari. Bolalarni rag'batlantirish usullari. Bolalarni nazorat qilish usullari. Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda tarbiya usullarining samarali bo'lishi shu oiladagi ijtimoiy, moddiy va ma'naviy muhitga chambarchas bog'liq bo'ladi.

Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishda tarbiyaning quyidagi vositalaridan foydalanilsa, yuqori samaradorlikka erishish mumkin: Muomala vositalari (verbal va noverbal). Texnik vositalar. Kitoblar. Ommaviy axborot vositalari. Madaniy va sport vositalari. Qo'shimcha vositalar (mehnat, ijod va boshqa sohaga oid vositalar).

III BOB. KATTA GURUHDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISHNING AMALDA O'RGANILISHI

3.1 KATTA GURUH BOLALARINI XALQ RIVOYAT VA HIKMATLARI BILAN TANISHTIRISH HAMDA SUHBATLASHISH

Tajriba sinov ishlari SHerobod shahar 1- sonli MTM ning “Katta guruhida” olib borildi. 2018 -yilning fevral oyidan 2018- yil may oylarigacha davom etgan tajriba ishimizda bolalarda xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirish uchun turli vositalar va usullardan foydalanishni belgilab oldik. Xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirishda badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotida rivoyatlardan foydalandik.

Tajriba sinov ishlarini quyidagicha rejalashtirdik.

1. Katta guruhni kuzatish, bolalarni o`rganish
2. Mashg`ulotlar rejasi bilan tanishish chiqish.
3. Bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantiruvchi rivoyatlar tanlash.
4. Mashg`ulotlar jadvali asosida, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda tajriba sinov ishlarini olib borish.

Juda ko'plab rivoyatlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ana shunday rivoyatlardan biri bu

Non hidi

(rivoyat)

Sulton Husayn Boyqaro: “Dunyodagi eng yaxshi hidli narsani keltiring!” - deb qolibdi. Unga quchoq – quchoq gul keltirishibdi. Sulton: “Yo'q bu emas!”, - debdi. Qalampirmunchoqni ro'baro' qilishibdi, rad etibdi. Yer yuzidagi jamiki xushbo'y narsalarni muhayyo qilishibdi.

Sulton bo'lsa: “Men aytgan bu emas”, - deb turib olibdi. Keyin :

- Uch kun muhlat ichida – topsalaring topganlaring, bo'lmasa hammangni jazoga torttiraman, - debdi.

Vazirlar nima qilishni bilolmay, o'ylayverib boshlari qotibdi. Xusayn Boyqaro istagan hidni topisha olmay, oxiri Navoiyning oldiga borishibdi.

- Sultonimiz aytgan narsani topib, bizni halokatdan saqlab qoling, - deyishibdi. Do'stining ko'ngli qanday hidni tusayotganini bilolmay, Navoiyning ham boshi qotibdi. Dehqon bobodan so'ragan ekan, u:

- Yangi yopilgan nondanolib boringlar – chi, otam rahmatli: “Dunyoda eng lazzatli va yoqimli hid- qayroqi bog'doy unidan yopilgan tandir non, hech qaysi hid unga yetolmaydi”, - deguvchi edilar, - deb maslahat beribdi.

Navoiy xursand bo'lib, dehqonning aytganini qilib, bir savat non yoptiribdi-da, saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyga ajib yoqimli hid tarqab, barchaning dilini yashnatib yuboribdi.

- Rahmat, do'stim, - debdi Husayn Boyqaro, nonlarni ko'rib.
- Ko'nglim yangi yopilgan non isini qo'rsayotgan edi, topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko'ra yoqimliroq hid yo'q...
- Sultonim, rahmatni menga emas, dehqon boboga ayting, ko'nglingizning xohishini shu kishi topdi, - deb javob beribdi Navoiy.

Husayn Boyqaro dehqonga bosh – oyoq sarpo berishni buyuribdi.

“Non qo'rg'on”

Mashg'ulot mavzusi: “Non qo'rg'on” nomli rivoyatni o'rganish.

Mashg'ulot shakli: mini ma'ruza va amaliy tajriba.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar: kitob bilan ishlash, hikoya qilish, tushuntirish, savol-javob, tajriba.

Mashg'ulot maqsadi: maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyat g'oyalari asosida axloqiy-milliy qadriyatlarga oid tushunchalarini boyitish.

Bajariladigan vazifalar:

1. Bolalarga rivoyatni o‘qib berish.
2. Rivoyatning mazmuni yuzasidan savol-javob tashkil etish.
3. Bolalarda non va uni asrab-avaylashga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish.

4. Bolalarning non va uni asrab-avaylashga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash.

Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich: Tarbiyachi bolalarga “Nonqo‘rg‘on” rivoyatini o‘qib beradi.

Kunlardan bir kun bir savdogar savdo-sotiq qilish uchun tuyada uzoq shaharlardan biriga otlanibdi. Safar chog‘ida vaqti-vaqti bilan to‘xtab dam olibdi. Safarining uchinchi kuni ikkita qishloq orasidan o‘tibdi. SHunda u shaharga tezroq etib olish va vaqtni tejash maqsadida tuyani ustida o‘tirgan holda ovqatlanmoqchi bo‘libdi. Endigina bir burda nonni olib tishlagan ekan, undan kichikroq bir bo‘lak ajralib, erga tushibdi. Savdogar tuyani to‘xtatibdi. U erga tushgach qanchalik izlamasin tuproq orasidan non bo‘lagini topa olmabdi. SHunda u ikki kun ishlab non bo‘lagi tushgan erning atrofini devor bilan o‘rab chiqibdi. Bu erdan o‘tayotgan yo‘lovchilar buning sababini so‘rashganlarida bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Keyinchalik odamlar ana shu devor atrofida yangi bir qishloqni barpo etishibdi. Qishloqqa “Nonqo‘rg‘on” deb nom berilibdi.

2-bosqich: Tarbiyachi bolalarga rivoyatning mazmuni yuzasidan savol berib, ularning javoblarini tahlil qiladi. Bolalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Savdogar nima uchun safarga otlanibdi?
2. U safarning uchinchi kuni qaerdan o‘tibdi?
3. Savdogar nima uchun tuyaning ustida o‘tirgan holda ovqatlanibdi?
4. U nima uchun tuyadan tushib, nima uchun devor uribdi?
5. Savdogar yo‘lovchilarga nimani aytib beribdi?
6. Keyinchalik devor atrofida nima paydo bo‘libdi?
7. Qishloq nima deb nomlanibdi?

3-bosqich: Tarbiyachi bolalarga nonni e'zozlash, uni isrof qilmaslik kerakligini tushuntiradi.

Non kishilarning qornini to'ydiradi. Bolalar agar qorningiz ochsa, o'zingizni holsiz sezasiz, harakat qilgingiz kelmay qoladi, to'g'rimi? (Bolalar: Ha). Bunday holatda non iste'mol qilsangiz, o'zingizni tetik his qiladi. Demak, non insonlarga quvvat bag'ishlaydi.

O'zbeklar nonni sevib iste'mol qiladilar, nonning ushog'ini ham e'zozlaydilar. SHuning uchun hamisha dasturxonga non qo'yiladi.

Non bug'doydan tayyorlanadi. Bug'doy esa erta bahorda yomg'ir ko'p yoqqan vaqtda barq urib o'sadi. Agarda suv bo'lmasa, bug'doydan hosil olib bo'lmaydi. Bug'doyning bo'lmasligi nonning qimmatlashishiga yoki butunlay bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Urush yillarida kishilar bir burda non muhtoj bo'lishgan.

Bug'doy etishtirish uchun dehqonlar bahordan kuzgacha mehnat qiladilar.

Aytishlaricha, nonni isrof qilish qahatchilikk (nonning bo'lmasligiga) olib keladi. SHuning uchun nonni uvol qilib bo'lmaydi. Nonni uvol qilmaslik uchun uni erga tashlamasligimiz, otmasligimiz, ovqatlanayotganimizda sanchqiga nonni sanchib olmasligimiz, ko'chada o'ynayotganimizda non emasligimiz kerak. Nonni dasturxon atrofida o'tirib eyishimiz, uni yuvilgan qo'l bilan ushlashimiz kerak. Agarda non ushoqlari dasturxonda erga to'kilsa, uni oyoq bilan bosmasligimiz lozim. Odobli bola erga to'kilgan non ushoqlarini ehtiyotkorlik bilan terib oladi va odamlar yurmaydigan erga, daraxtlarning taglariga to'kib qo'yadi. Bunda non ushoqlarini qushlar eyishlari mumkin. Dasturxon ham odamlar yurmaydigan erga, daraxtlarning taglariga qoqilishi kerak. Bolalar, sizlar hozirdan nonni e'zozlashga o'rganishingiz kerak!

4-bosqich: Tarbiyachi bolalarning non va uni asrashga bo'lgan munosabatlari darajasini aniqlaydi. Buning uchun ularga quyidagi savollarni beradi?

1. Odamlarga non nima uchun kerak?
2. Non nimadan tayyorlanadi?
3. Bug'doyni kimlar etishtiradilar?

4. Nonni uvol qilish mumkinmi?

Mashg'ulotning ijtimoiy-tarbiyaviy samarasi: Rivoyatning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u orqali bolalar nonni e'zozlash kerakligini, nonga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

Didaktik materiallarning to'g'ri, maqsadga muvofiq tanlanganligi bolalarning "o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlashda namoyon bo'ladi". SHuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik materiallar o'rtasida o'zaro izchillikni qaror toptirish ham muhimdir. Bunda "birinchi navbatda, har bir ta'limiy topshiriqni o'zlashtirishdan ko'zda tutiladigan maqsadni aniqlab olish talab etiladi". Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni axloqiy-milliy qadryatlar bilan yaqindan tanishtirishda ana shu masalaga e'tibor qaratish lozim.

SHunday qilib, nazariy tahlil va amaliyotni o'rganish natijasida rivoyatlar ham maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirishda samarali didaktik vosita ekanligi aniqlandi. Maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida ulardan foydalanishda nazariy bilimlar targ'ibotini ko'rsatmali tarzda namoyish etish ularning bolalar tomonidan puxta o'zlashtirilishiga olib keladi.

3.2 Natijalar taxlili va xulosa

Tajriba sinov ishlari SHEROBOD shahar 1- sonli MTM ning “Katta guruhida” olib borildi. 2018 -yilning fevral oyidan 2018- yil may oylarigacha davom etgan tajriba ishimizda bolalarda xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirish uchun turli vositalar va usullardan foydalandik. Bolalarda Xalq rivoyat va hikmatlari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantirishda badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg’ulotida rivoyatlardan foydalanildi.

Tajriba sinov ishlarini quyidagicha tashkil etildi.

3. Katta guruhni kuzatildi, bolalar o`rganildi
4. Mashg`ulotlar rejasi bilan tanishib chiqildi.
- 3.Bolalarda axloqiy-milliy qadryatlarni shakllantiruvchi rivoyatlar tanlanib, shu asosida mashg`ulotlar o`tkazildi..
- 4.Mashg`ulotlar jadvali asosida, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda tajriba sinov ishlarini olib borildi.

Non hidi

Savollar:

1. Sulton Husayn Boyqaro o`z vazirlariga qanday topshiriq beribdi?
2. Saroy ahli sultonga nimalar keltiribdi?
3. Alisher Navoiy shohga ma`qul keladigan xushbo`y hidni qanday topibdi?
4. Rivoyat qanday tugabdi?
5. Sen nimaning hidini yaxshi ko`rasan?
6. Nima uchun non isi dunyodagi eng qadrli va yoqimli hid?

Topshiriqlar:

1. Bolalarni non haqidagi tasavvurlarini kengaytiring. Nonni aziz deb bilib, uni ehtiyotlash kabi ananalarga amal qilishga undang. Nonning dasturxoningizga yetib kelgunga qadar bosib o`tgan uzun yo`li haqida

gapiring. Bu ishda odamlarga qaysi transport vositalari yordam berishi haqida qiziqarli hikoya qilib bering.

2. So'zlaringizni xalq maqollari bilan boyiting:

Non bolasi – non ushoq.

Bir bosh don, bir savat non.

3. Non haqida yana nima deyish mumkinligi haqida fikirlashing:

Non - quyoshga o'xshaydi issiq.

Non – mehrli.

Non – to'yimli.

Non – mazali .

Non – chiroyli.

4. Ko'ryapsamni, rasmda kata, chiroyli, mazzali non tasvirlangan. U qaysi geometric shaklga o'xshaydi. To'g'ri u dumaloq, doira shakliga o'xshaydi. Atrofingda yana qanday dumaloq shakldagi narsalarni ko'ryapsan? Dumaloq narsalarni rasmini chizing.

Savol – javob jarayoni

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar bugungi mashg'ulotimiz "Non qadri" uning nima ekanligi, nonning aziz ne'mat ekanligi haqida ekan. Qani kim aytadi non nimadan qilinadi, nonni qadrlash deganda nimani tushinasiz?

1-bola: Non avval bug'doydan keyin undan paydo bo'ladi

2-bola: Nonni yeyayotganda ushog'ini tushirmay yeyish kerak.

Tarbiyachi: Nonni kimlar pishiradi?

3-bola: Builar, onalar, nonvoylar pishiradi.

Tarbiyachi: Bolalar Sanobar nonni kuchugiga berib to'g'ri qildimi?

4-bola: Yo`q, bundan onasi juda xafa bo`ldi

Tarbiyachi: Bolalar Sanobarning ota-onasi ko`rgan chora to`g`rimi?

5-bola: Xa

6-bola: Sanobar qilgan ishidan pushaymon bo`ldi.

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar bu rivoyat orqali siz nonning aziz ne`mat ekanligini, hech bir taom nonsiz tanovul qilinmasligini siz Sanobar orqali bilib oldingiz.

“Dono momo” rivoyati

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar! Bugungi mashg`ulotimiz “Dono momo” haqida ekan. Qani kim aytadi, nima uchun zolim podshoh bu yurtga urush e`lon qildi.

1-bola: Chunki bu yurtda qurg`oqchilik, ochlik boshlangan edi.

2-bola yurtda parokandalik boshlangan edi.

Tarbiyachi: Xalq qochayotgan paytda ularni dono momo to`xtatib nima dedi?

3-bola: Yurtni tashlab ketish gunoh ekanligini aytdi.

4-bola: Men sizlarga bir ne`mat beraman dedi.

Tarbiyachi: Dono momo bergan mayiz qanday xususiyatga ega ekan, uni yegan odamlar o`zi qanday his qilibdi?

5-bola: Odamlar o`zlarida kuch-quvvat sezibdi.

6-bola: Dushmanga qarshi jangga kiribdi.

7-bola: dushmanni yengib, dono momoga raxmat aytibdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar bu rivoyatdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, yurtda qurg`oqchilik, ochlik, buning ustiga dushman bostirib kelayotgan paytda kimdir xalqni kurashishga chorlasagina xalq birlashib yurtni himoya qilishga chog`lanadi. Dono momo ana shunday qahramonlik ko`rsatib, o`z yurtini, xalqini qullikdan saqlab qoldi.

Chinakkam savodli kitobxonni tarbiyalash uchun bolada badiiy asarni idrok etish va anglash qobiliyatini shakllantirish lozim. Ruhshunoslar ta`birida, bu jarayon zaminida bolaning intellaktual, bilish va hissiy faoliyatlari yotadi.

Ruhshunoslar tomonidan san`at asarlarini, shu jumladan badiiy asarlarni ham idrok etishda rivojlanishning sifat jihatdan bir-biridan farq qiladigan va bevosita bola

shaxsining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ikki davr qayd etiladi. Birinchi davr "ikki yoshdan besh yoshgacha", ikkinchisi esa, besh yoshdan boshlanib, butun umr mobaynida davom etadi.

Ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrda bola kata rivojlanish yo'lini bosib o'tadi va maktabgacha yoshga yetib, san'at asarlarini tushunadigan bo'lib qoladi. Bu davrga kelib, u nafaqat o'zini odam sifatida qabul etadi (o'zini rasm va oynada taniydi), balki ichki dunyosini kashf eta boshlaydi, o'z fikrlari, tuyg'ulari va g'aroyib xayollarga ega bo'lgan shaxs o'rnida ko'radi. Ayni shu vaqtda bola boshqa insonlarda ham o'z ichki dunyosi, ularda ham o'xshash yoki o'zgacha fikr va his - tuyg'ular borligini anglaydi. Shu paytda badiiy adabiyotni tushunishning ikkinchi davr boshlangan hisoblanadi.

Bolalarning ilk rivojlanishi kelgusida ularning shaxs bo'lib shakllanishida muhim hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu o'rinda, bolaning ilk ta'limiga zaruriy mablag' sarflashning (investitsiya) bir qator sabablarini ko'rsatish mumkin:

- Kata odamning 70% intellectual qobiliyatini hayotining birinchi 5 yil davomida shakllanadi;
- Umumiy ta'limdagi salmoqli yutuqlari;
- Ta'limni yanada yuqori bosqichda davom ettirish imkoniyati;
- Xatti-harakatdagi salbiy tomonga og'uvchanlik va jinoyatga moyillikning vujudga kelish holatlarining kamayishi.

Maktabgacha yoshdagi bola o'ziga hos o'quvchidir: unga taqdim etilgan barcha asarlarni u faqatgina tinglab idrok etadi. Bola tafakkurida paydo bo'ladigan badiiy timsollar va tasvirlar unga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi ta'lim sifati va har bir bolaning o'z zakovati va rivojlanishi imkoniyatlarining ro'yobga chiqishiga alohida e'tibor beradi. Har bir bola muvaffaqiyatga erishishi mumkin va erishadi ham, faqat bunga biz – bolalar bilan shug'ullanayotgan katalar bilimga ega bo'lishimiz va

ularni qo'llab – quvvatlashimiz talab etiladi. Bolaning kitob bilan miriqib shug'ullanayotganini ko'rish naqadar zavqlidir. Sizda esa shunday damlarda bolangiz yonida bo'lish kabi alohida betakror imkoniyatingiz bor.

Yangi kitoblar bilan bolalar kutubxonasini to'ldirish yoki borlarini yangilashdan boshlash lozim. Bu ishlarni kichkintoy bilan birga qilgan ma'qul. Kutubxonangizda bolalar adabiyotiga tegishli bo'lgan bir nechta turdagi kitoblar bo'lishi mumkin:

- bolani o'rab turgan muhitda mavjud narsalarning rasmi aks ettirilgan o'yinchoq-kitobchalar;

- muqova –matnda keltirilgan narsaning shakliga mos ravishda qirqilgan kesma-kitobchalar;

- harakatlanuvchan buyum, odam va hayvon shakllari bor yoyma kitobchalar.

O'sib kelayotgan o'zbek va jahon bolalar adabiyotiga mansub turli kitoblar (nasriy, she'riy va dramaturgiya), turli janr (hikoya, she'r, muallifli ertaklar, qissa, xalq ertaklari), mavzu va yo'nalishli, folklorga (aytishuv, ovutmacholqlar, sanamalar, topishmoqlar, maqollar va boshqalar) taalluqli asarlar bo'lishi lozim.

BOB BO`YICHA XULOSA

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish ulardavujudga kelishi mumkin bulgan tarbiya muammolari oldini olishi jihatidan xozirgi davrning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ushbu mavzu yordami tegishi mumkin bo`lgan muammolar aksariyat xollarda ijtimoiy mazmunga ega bo`lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin buladi.

Bolada tarbiyaning salbiy jihatlarini paydo bulishi arafasida ularning uzini tutishida qandaydir asabiylashish xolatlari bulib, u kam uxlaydigan, tez jaxli chikadigan va tez-tez yig'laydigan bo'ladi. Bu salbiy jihatlar paydo bulishining dastlabki bosqichi bo`lib, bunda ota-onalarning o'zlari bolani bunday yuldan qaytarishlari mumkin bo`zladi.

Bolada tarbiya salbiy jixatlarining urnatish bosqichi. Bunda o`zini chetga oladigan, begonasiraydigan va muomalada «berkiladigan» buladi. Bu boskichda bolani ushbu yo'ldan ota-onalar, tarbiyachilarva elu-qarindoshlar yordamida qaytarishi mumkin bo'ladi.

Bolada salbiy jihatlarining rivojlanish bosqichi. Bunda salbiy jihatlar bolaning «g'ururiga» va kundalik turmush tarziga aylanadi. Bu tarbiya salbiy jixatlarning ijtimoiy xavfli bosqichi bulib, ular bolani turli jihatlariga tortib ketishi mumkindir. Bunda ota-onalarga psixologlar, jamoatchilik va mahalliy xokimiyat organlari vakillari yordam berishlari mumkin bo'ladi.

Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining shakllanishi oila muhitida va oila a'zolari bilan buladigan o'zaro munosabatlar natijasida ro'y beradigan jarayondir. Shu sababli oilada to'g'ri tashkil etilgan mehnat bu muhit va munosabatlar ta'sirining samarali bo'lishiga imkon beradi, hamda undan foydalanish maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Boladagi axloqiy-odobning tashki ko'rinishi faqatgina ota-onalarga bo'lgan ishonch va ota-onalar tomonidan bolalarga bulgan samimiy munosabat natijasidagina ichki ruxiy dunyokarash kunikmalarga aylanadi. Qachonki bolada ma'naviy-axloqiy tarbiyaga nisbatan ichki extiyoj motivlari paydo bo'lsa, u haqiqiy ko'nikmaga aylana

oladi. Bunda qanday ko`rsatmalar, dasturlar va buyruqlar asosida rasmiyatchilik hamda avtoritor tarzda talablarni bolalar oldiga qo`yish samarasiz teskari natijalarga olib kelishi mumkindir. Bunda ota-onalarning ishonтира olish qobiliyatlari hal qiluvchi ta'sir omillaridan hisoblanadi.

Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi ko'p xollarda oilada bo'ladigan muammoli vaziyatlarda qaysi tomonning salbiy tomonmi yoki ijobiy tomon ustun kelishi vash u tomonning faoliyat yunalishi bilan parallel tarzda shakllanib boradi. Shu sababli oilada baxsli masalalarning bola nazaridan chetda xal etilishi, agarda buning iloji bulmasa bola oldida tortishmasdan uzaro kelishuv asosida xal etilishi maksadga muvofiq bo'ladi.

Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi kechishi jixatdan notekis boradigan jarayondir. Bunda bola ruxiyati va dunyo qarashiga turli xil ijobiy hamda salbiy ta'sirlar o'ziga xos qoldirgan izlari vaqti-vaqti bilan turli vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli ko'p xollarda bolalar o'z qilgan noto'g'ri ishlari va xatti-xarakatlarini izoxlab bera olmaydilar. Bunda ota-ona bir ayb bilan bolani juda qattiq jazolamaslik va yoki bir jinoiy ishga olib boruvchi ayblarini (o'g'rilik, olov qo'yish, zo'ravonlik va x.k.z) e'tibordan chetda qoldirmasliklar lozim bo'ladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bolalar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasining shakllanishi oila muhitida va oila a'zolari bilan buladigan o'zaro munosabatlar natijasida ro'y beradigan jarayondir. SHu sababli oilada to'g'ri tashkil etilgan mehnat bu muhit va munosabatlar ta'sirining samarali bo'lishiga imkon beradi, hamda undan foydalanish maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Boladagi axloqiy-odobning tashqi ko'rinishi faqatgina ota-onalarga bo'lgan ishonch va ota-onalar tomonidan bolalarga bulgan samimiy munosabat natijasidagina ichki ruxiy dunyoqarash ko'nikmalarga aylanadi. Qachonki bolada ma'naviy-ahloqiy tarbiyaga nisbatan ichki ehtiyoj motivlari paydo bo'lsa, u haqiqiy ko'nikmaga aylana oladi. Bunda qanday ko'rsatmalar, dasturlar va buyruqlar asosida rasmiyatchilik hamda avtoritor tarzda talablarni bolalar oldiga qo'yish samarasiz teskari natijalarga olib kelishi mumkindir. Bunda ota-onalarning ishontira olish qobiliyatlari hal qiluvchi ta'sir omillaridan hisoblanadi.

Bolalar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi kechishi hu notekis boradigan jarayondir. Bunda bola ruhiyati va dunyo qarashiga turli xil ijobiy hamda salbiy ta'sirlar uziga xos qoldirgan izlari vaqti-vaqti bilan turli vaziyatlarda namoyon bo'ladi. SHu sababli ko'p xollarda bolalar o'z qilgan noto'g'ri ishlari va xatti-xarakatlarini izohlab bera olmaydilar. Bunda ota-ona bir ayb bilan bolani juda qattiq jazolamaslik va yoki bir jinoiy ishga olib boruvchi ayblarini (o'g'rilik, olov qo'yish, zo'ravonlik va x.k.z) e'tibordan chetda qoldirmasliklar lozim bo'ladi.

TAVSIYALAR

Bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishda ularning yuzaga kelishi va rivojlanishini bilish hamda ularni tarbiya jarayonida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, quyidagicha ifodalash hamda foydalanishni tavsiya etamiz.

- Xalq og'zaki ijodi meros qadriyatlari. Bular ertaklar, dostonlar, qissalar, hikoyalar, topishmoqlar, ashulalar, chistonlar va ugitlar sifatida bizgacha etib kelgan. Bular orqali bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish turli xil suhbatlar, tez aytishlar, aqliy o'yinlar va mushoiralar sifatida amalga oshirilishi mumkin.

- Bolalar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini xikoya va rivoyatlar asosida shakllantirish, vatanparvalik, jamoatchilik, erk, ozodlik, adolatparvarlik, mardlik, do'stlik, tarbiyalilik, ahloqiylik, or-nomus, xalollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi ko'nikmalarning vujudga kelishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.–T.: O‘zbekiston,1998. -686 b.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild.- T.:O‘zbekiston, 1999.-413 b.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.T.: O‘zbekiston, 1996. – 351 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. - 17
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz- Toshkent, O‘zbekiston, 2016, 13-bet
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». 2016 yil 29 dekabr PF - 2707 –sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–3261-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–5198-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni G‘G’ Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -20-29 b.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”G‘G’ Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -32-61 b.
- 11.. “Bolajon” tanch dastur. T., 2016 yil
12. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari. T. 2017.
- 13.Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-jild. –T.1991.
- 14.Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. T.: 1990.
- 15.Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. –T.: Fan. 1975.
- 16.Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. –T.: Fan. 1968.
- 17.Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. –T.: Badiiy adabiyot. 1966.

- 18.Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. –T.: O‘zbekiston. 1970.
- 19.Ahmad Yassaviy. Shajarai saodat. Karomatlari. Hikmatlari. CHimkent, 1992.
- 20.Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. –T.: O‘qituvchi. 1967.
- 21.Mahmud Qoshg‘ariy. Devoni lug‘otit turk.Turkiy so‘zlar devoni.T.: 1967.
- 22.Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”.“Tafakkur sarchashmalarT.: 2013
- 23.YUsuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. –T.: YUlduzcha. 1990.
- 24.Kaykovus. Qobusnoma. –T.: SHarq matbaa konserni. 2009.
- 25.Rauf Parpi. Munavvar Qori. SHarq YUlduzi j.G’G’1992,5-son,106-b.
- 26.Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. –T.: Fan. 1968.
- 27.Yo‘ldoshev N. “Rahbari najot” asarida bolalar tarbiyasi masalalari. Xalq maorifi j. –T. 1993. 3-son. 31-32-b.
- 28.O‘zbek xalq maqollari. –T.: SHarq. 2005.
- 29.Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. –T.: O‘qituvchi, 2000.–224 b.
- 30.F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Ma’naviyat”. 2013 y. 86-88 b.
- 31.Shodmonova.SH Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T., 2008 y. 56-58 b

Elektron ta’lim resurslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi: www.eduportal.uz, www.multimedia.uz.
3. Malaka oshirish muassasalari: <http://www.pedagog.uz>
4. “Iste’dod” jamg‘armasi: <http://www.istedod.uz>
5. Respublika bolalar kutubxonasi: www.kitob.uz
6. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziynet.uz

ILOVALAR